

SERGEY SEDOV

GERAKLNING
ON IKKI AFSONAMIV
QAHRAMONLIGI

SERGEY SEDOV



GERAKLNING O'N IKKI AFSONAVIY QAHRAMONIGI

(Bu voqealar aslida qanday sodir bo'lganini
ko'rgan guvohning hikoyasi)



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2015

821.161.1
S 40

UO'K: 821.512.133
KBK 84(2 Ros-Rus)
S40



Muallif barcha sinovlardan g'oliblarcha o'tgan pahlavon Gerakning afsonaviy qahramonliklarini qiziqarli va g'aroyib voqealarga boy holda hikoya qilib bera olgan.

Ruschadan Rauf Subhon tarjimasi

Rassom: Mahamadjon Yo'ldoshev

ISBN 978-9943-28-231-5

© R. Subhon (tarj.) 2015.

© «O'zbekiston» NMIU, 2015.

2016/2	Alisher Navoiy
A 63	O'zbekiston MK

QUR'AN NIMATI UCHUN VA QANDAY DUNYOGA KELDI

Mana, Qadimiy Yunoniston. Tog'lar, vodiylar, zaytunzor, ajoyib shaharlar. Dengiz, orollar va bosh uzra quyoshning issiq tafti...

Ana shu Qadimiy Yunoniston osmoni uzra, boshingizning shundoq tepasida odamlarga ko'rinmas Olimp turibdi. U yerda, albat, Olimp ma'budlari yashaydi. Ular tepadan odamlarga qudratli nigohlarini qaratib turadi, nimadir bo'lsa darrov jazolaydi yoki yordam beradi.

Mana bu eng asosiy Olimp ma'budi – Zevs. U juda ham kuchli va qudratli. U o'zining dahshatli olovini xohlagan ma'budga yoki xohlagan joyiga yuborishi mumkin. Shuning uchun barcha odamlar undan qo'rqishadi. Boshqa ma'budlar ham uning gaplariga diqqat bilan quloq solib turadilar. Aslini olganda ma'budlarga yaxshi, chunki ular Olimpdagi yashashadi. Shu sababli ham kun bo'yi dam olishadi, bazm-u ziyofat qilishadi, ba'zan Yer-u Ko'kka razm solib, hukmlarini o'tkazib qo'yishadi. Ma'budlarga yanayam yaxshiligi, ular mevalardan tanovul qilib, bol simirishadi, hech qachon kasal bo'lishmaydi, hatto o'lmaydilar.

Shunday sharoitda yashayotgan bo'lishiga qaramay, Zevs nima uchundir xafa ko'rinadi, xo'rsinib nafas olib, boshini qashib qo'yyapti. Bashorat qiluvchi unga dahshatli sirni aytgan edi. Zamin – Geya bahaybat, afsonaviy pahlavon maxluqlarni tuqqanmish.

– Mening payqashimcha, – kaftini peshonasiga uradi Zevs, – oxirgi paytlarda qandaydir yer qimirlashlar sodir bo'lmoqda.

– Hozir bu kichkina polvon maxluqchalar yer bo'ylab g'imirlashayapti. Yana qirq yil o'tib ular bahaybat pahlavonlarga





aylanishadi, keyin yerdan ko'tarilishib Olimp ma'budlarini yengishadi.

– Keyin biz qayerda yashaymiz va nima yeymiz? – so'radi xayron bo'lib Zevs.

– Bu pahlavonlar, – dedi bashoratchi, – bir kun kelib odamlarni katta va chuqur g'orlar qazishga jalb qiladi, keyin olimplik barcha o'lmas ma'budlarni shu g'orlarga tiqib, g'or og'ziga katta-katta toshlarni qalab tashlashadi. Sizlar o'sha yerda yashaysizlar. Turli xil qo'ng'iz, chuvalchang va endigina tuxumdan chiqqan qurtlar bilan ovqatlanasizlar.

– O'sha qo'ng'izlaringni jinim yoqtirmaydi, – g'azab bilan baqirdi Zevs, – chuvalchanglar mening ko'nglimni aynitadi. Bizning quyoshimizsiz, bizning bu yorug' osmonimizsiz hayot – hayotmi?! Yo'q, muhtaram bashoratchi, biz bu falokatlardan qanday qutulsak bo'ladi, bu qo'rqinchli pahlavonlarni yengishning iloji bormi, nahotki iloji bo'lmasa?

Bashoratchi engashib qoldi, kelajakka qarab oldi-da shunday dedi:

– Buning bir yo'li bor. Lekin bu yo'l eng qiyin yo'l.

– Men hech qanday qiyinchilikdan qo'rqmayman! – baqirib yubordi Zevs. – Olimpning porloq kelajagi va tinch hayoti uchun qo'limdan kelgan barcha harakatimni ayamayman.

Bashoratchi unga sinchkovlik bilan qaradi.

– Xo'sh, bo'lmasa quloq sol! – dedi. – Siz, o'lmas ma'budlar pahlavonlar bilan olisholmaysiz, chunki ularning onasi Geya bolalariga sirli ashyo bergan. Bu ashyo ularga surtilib hech narsa ta'sir etmaydigan qilib qo'ygan, hatto Sizning ilohiy qurolingiz ham ularni mag'lub etolmaydi. Faqat yerda tug'ilgan bandagina pahlavonlarni yengishi mumkin. Bu odam shunchaki odam emas, balki yagona odam hisoblanadi. Agar yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, bu – sening tug'ilajak o'g'lingdir. Lekin u iloji boricha ertaroq tug'ilishi kerak.

– Bu qiym ish emas, – dedi Zevs xursand bo‘lib. – Hozir, hozir xotinim Gerani chaqiraman.

– E, yo‘q, – boshini chayqadi bashoratchi, – bunday qilsang, shunchaki oson kechganday tuyuladi. Agar xotining Gera senga o‘g‘il tug‘ib bersa, u o‘lmas ma‘budga aylanadi, qiron keltiruvchi odamga emas.

– To‘g‘ri aytasan! Zevs – Momaqaldiraq yaratuvchi ensasini qashladi. – Bu haqda o‘ylab ko‘rmagan ekanman. Unda menga kim bunday o‘g‘ilni tug‘ib beradi?

– Yerlik bir ayol. Qisqa muddat sen uning eri bo‘lishing kerak.

– Aytishga oson, – Osmon hukmdori qoshlarini chimirdi. – Sen mening Geramni yaxshi bilasan-ku. U juda ham rashkchi, agar boshqa ayolga uylanganimni bilsami, menga urush e‘lon qiladi, tug‘ilajak o‘g‘lim ham ko‘radiganini ko‘radi...

Bashoratchi boshini irg‘ab qo‘ydi. Kelajakka nigoh tashlab shunday dedi:

– To‘g‘ri, sening o‘g‘lingga og‘ir bo‘ladi, u bunday qiyinchilik-sinovlarga bardosh beradimi, yo‘qmi aytish qiyin.

– Mening o‘g‘lim bo‘laturib-a? – xafa bo‘ldi Zevs.

– Sinovlarni yengish oson bo‘lmaydi-da, – xo‘rsindi bashoratchi. – Axir u faqat jasorat ko‘rsatishi kerak. Agar u birgina qabih, yomon ish qilsa, unda o‘sha pahlavonlar bilan bellasha olmaydi...

– Bo‘pti, sen albatta ikkilanishing mumkin, – Zevs ko‘kragiga urib qo‘ydi, – men esa, o‘z o‘g‘linga ishonaman. Sen faqat men qaysi ayolga uylanishim kerakligini aytsang bo‘ldi.

– Ha, yana nima istaysan? Sen uni o‘zing izlab topishing kerak. Uning kimligimi senga aytishga mening haqqim yo‘q. Men shuni ayta olamanki, u persiyalik bo‘ladi, uning ismi «A» harfidan boshlanadi. Yana bilganim, bu ayol juda ham chiroyli bo‘ladi.

Shunday deb, bashoratchi hayot va o‘limning tugalmas rishtalarini yashirgan holda g‘oyib bo‘ldi...

Zevs esa o‘z yorini izlash uchun yerga parvoz qildi. U har bir uyni ko‘zdan kechirdi, chiroyli ayollarni izladi. «A» harfi bilan

boshlanadigan ayollar ismlariga ahamiyat berdi. Lekin bu yerdagi hech bir ayol bunday atalmadi.

Zevs kuni bilan bashoratchi aytgan ayolni izladi. Ammo uni topolmay hayron bo'lib turganida bir hashamatli saroy atrofida juda chiroyli ayolga ko'zi tushdi. O'sha ayol o'z erini urushga kuzatayotgan edi. Shunday qilib, Zevsga ana shu chiroyli notanish ayol yoqib qoldi va ayolning erini urushga ketishini kutib turdi. Zevs birpasda o'sha er qiyofasiga kirdi-da ayolning yoniga qaytdi.

– Sen qanday qilib tez qaytib kelding! – go'zal ayol hayratlanib so'radi.

– Cho'zib nima qildim? Bordim, ko'rdim, g'alaba qildim! – dedi Zevs.

Zevs faqat bir kecha bu go'zal ayolning eri bo'ldi va so'ngra bug'lanib, havoga singib ketdi. U bug'lanib ketishi bilan haqiqiy er paydo bo'ldi. U shunday dedi:

– Alkmena, azizam, men qaytdim.

Xotini esa:

– Azizim Amfitrion, axir sen kecha kelganding-ku?

Bu so'zlarni ko'zga ko'rinmas Zevs eshitdi va o'zida yo'q xursand bo'ldi. «O'h, men, – o'yladi u, – qanday zo'rman! Aynan o'sha ayolga uylanibman! O'zi – Alkmena, eri esa – Amfitrion. Ikkalasi ham «A» harfidan boshlanadi.

To'qqiz oy o'tib Alkmena egizak tug'di.

Biri Ifikl – Amfitrionning o'g'li. Boshqasi – Zevsning o'g'li edi. Dastlab Zevsning o'g'lini Alkid deb atashgan bo'lishsa, keyinchalik uni haqiqiy ismi bilan – Gerakl, deb atasha boshlashdi.

Elladaning afsonaviy qahramoni ana shunday tarzda dunyoga keldi. Endi biz uning hayoti va ko'rsatgan qahramonliklari haqida hikoya qilamiz. Zero, bu hikoyalar Sizning qalbingizda ham Geraklga nisbatan havas hamda hurmat uyg'otishiga ishonamiz.

GERAKL VA IKKI UKTAN BO'G'MA ION

Zevsning xotini Gera Gerakl kimning o'g'li ekanligidan xabar topdi. Chunki u juda ham sezgir edi. Yana rashk qilardi. Geraklning tug'ilgan kunidan boshlab zahrini sochishga harakat qila boshladi. Zevs o'z o'g'lining tug'ilishini oldindan bilar va persiya urug'ida birinchi dunyoga kelgan o'g'lon Qadimiy Yunonistonda asosiy podshoh hisoblanishini butun Olimpga e'lon qilgandi.

– Ha, sen faqat tilingga erk berasan! – dedi bilmaslikka olgan Gera.

– Kim-kim, men tilimga erk berayapmanmi? – g'azablandi Zevs. – Butun ma'budlar nomidan qasam ichamanki, aytganimday bo'ladi.

Zevs o'z o'g'lining birinchi bo'lib tug'ilishiga ishonch bildirgandi, lekin o'zi yonida emasdi. Shunda Gera darhol Olimpdan jo'nab Argusga bordi. U yerda persiyalik Sfenelning xotini ko'z yorishi arafasida edi. Lekin uning tug'ishiga hali bir oy muddat bor edi. Gera butun hiylasini ishga solib bola tug'ilishini tezlash-tirdi. Shu tufayli dunyoga birinchi bo'lib nimjongina Evrisfey keldi. Gera esa Olimpga zudlik bilan qaytib butun Olimpga jar soldi.

– Bugun persiyada birinchi bo'lib Evrisfey tug'ildi! Endi u Yunonistonda eng asosiy podshoh hisoblanadi, – dedi.

Ana shunda, Zevs Geraning nayrangini tushundi, lekin kech bo'lgandi. Axir u butun ma'budlar nomidan qasam ichgan edi-da. Demak, Geraklning taqdirida podshoh bo'lish yo'q ekan-da. Eh, afsus! Balki bu yaxshilikkadir? Biroz sabr qilaylik-chi...

Zevsning xotini Gera qilgan ishlari bilan qanoatlanib qolmadi. Gerakl tug'ilishi bilan yoshgina go'dakni hali pahlavon bo'lmay





turib, yo'q qilish payiga tushdi. Gera uning oldiga ikkita kattakon ilonni jo'natdi. Bu ilonlar olgan buyrug'iga asosan Geraklni bo'g'ib o'ldirishlari kerak edi.

Mana, bitta belanchakda ikki egizak o'g'lon shiringina uxlab yotibdi. Ikki ilon esa tobora ularga yaqinlashib bormoqda. Bular shunchaki ilonlar emas, bo'g'ma ilonlar edi. Birining uzunligi – 8, ikkinchisi – 12 metr kelardi. Nihoyat, ular belanchak yoniga yetib kelishdi va to'xtab qolishdi. Gera ularga bittasini bo'g'ib o'ldirishlarini buyurgandi. Bu yerda ikkita chaqaloq bor edi. Qaysi birini o'ldirishlari kerak?

Shunda ular Geraning fikran yuborgan «ikkalasini ham bo'g'ing» degan yangi buyrug'ini olishdi.

Ilonlar birma-bir bolalarga yaqinlashishdi. Katta ilon – Geraklga, kichikrog'i – Ifiklga yaqin bordi... va bo'g'ma halqalari bilan go'daklarni bo'g'a boshlashdi.

Geraning yuragi quvonchdan tez urardi: mana, hozir Zevs va o'sha go'zal ayolning men ko'rishni xohlamagan o'g'li daf bo'ladi. Mana, hozir... Bo'g'iladi. Hozir...

Kutilmaganda kichkina Ifikl uyg'onib ketdi. Ilonni ko'rib tagini ho'llab qo'ydi. Belanchak ho'l bo'lganligi tufayli Gerakl ham uxlay olmadi. U ham uyg'ondi va bo'g'ma ilonni ko'rdi. Lekin qo'rqmadi. Aksincha yonida turgan bo'g'ma ilonni o'ng qo'li bilan, chap qo'li bilan esa boshqa ilonning bo'ynidan mahkam ushlab bo'g'a boshladi.

Amfitrion bilan Alkmena yugurib kelib:

– Bu qanday shovqin? – deb, Geraklning ikki qo'lida ikki ilonning osilib turganini ko'rib qoldilar.

– Gerakl go'dakligidayoq ikkita kattakon bo'g'ma ilonni bir yoqli qilibdimi, ulg'aysa, qanday pahlavon bo'lishini tasavvur qlayapman, – dedi Amfitrion.

– Ha, Gerakl boshqacha bola bo'ladi, – deb uning gapini ma'qulladi Alkmena ham. – U Xudo xohlasa buyuk qahramonga aylanadi va bizning nomimizni ham sharaflyadi.

Bu paytda esa Gera sochini yular, tishlarini qayrab, jahldan ko'zlari bir nuqtaga aylanib, Geraklni o'ldirolmadim, deb afsusnadamat chekardi. Lekin u tinchlanmadi. U, albatta, sharmanda bo'lganligining alamini olmoqchi bo'ldi. Hozir bo'lmasa, Gerakl katta bo'lganda oladi-da...

Agar Gera Geraklning butun Olimp ma'budlarini, Yerdagi osuda hayotni saqlab qolishi uchun tug'ilganini bilganida edi, bunday qilmagan bo'lardi. Zevs bu haqda unga aytmagan edi-da! Chunki Zevs bu sirni saqlash uchun qasam ichgandi. Geraklning bo'lajak qahramonligi to'g'risida hech kim bilmasligi kerak edi. Bilsa Qadimgi Yunoniston dahshatli falokat ostida qolardi...



GERAKLNING ULG'AYIB QUL BO'LGANI

Kichkina Gerakl ulg'aya boshladi. U tez ulg'aydi. Har kuni emas, har soat sayin... Boshqa bolalarning hali og'zidan so'lagi ketmaganida u hamma tomonga o'rmalab, emaklar edi. Ifikl endi qadam tashlaganda Gerakl kiyikni quvib yurardi. Gerakl yoshlikdan kurashni yaxshi ko'rdi va kamondan o'q uzar, og'ir-og'ir buqalarni yelkasida ko'tarib yurardi. Bu ishda unga masofaning farqi yo'q edi. Uzoqmi-yaqinmi... bola tez ulg'aydi. Haqiqiy o'smir yigit bo'ldi, so'ng favqulodda kuchli, epchil pahlavonga aylandi. Agar Gera bo'lmaganida hammasi joyida ketayotgandi. Geraning alami bor edi. Geraklning shunchaki yengib bo'lmasligini bilib, ayyorligini ishga sola boshladi. Belanchagiga ilon o'rnatgani yetmaganday, endi zahrini sochardi. Gerakl bosiq, xotirjam bo'lsa ham Geraning g'azabi qaynab turardi – endi uning tinchi buzildi. Hamma yoqni ostin-ustun qilib, qo'lga tushgan jonzotni o'ldira boshlar, o'ziga kelganida esa kech bo'lardi. Ko'zasi singanda mumlash mumkindir, lekin joni chiqqanga jon kirgizib bo'lmaydi-ku!

Kunlarning birida musiqa o'qituvchisi – qariya Lin uni cholg'u chalishga va kuylashga o'rgatar edi. U kifara degan cholg'uda musiqa ijro etishni o'rganardi. Bu cholg'u asbobi og'ir-vazmin edi. Gerakl o'qituvchisiga quloq solsa-da, beparvolik qilardi. U musiqa asbobida o'ynashni umuman yoqtirmasdi. Unga kamondan o'q uzish bo'lsa bo'ldi...

Mana u kamondan o'q uzish bo'yicha bo'ladigan musobaqa haqida o'ylab o'tiribdi. O'qituvchi yaqin kelib, kifarani o'quvchiga uzatib:

– Qani, ayt-chi, «lya» notasi ijrosi uchun qaysi torni topib chalish kerak?

Gerakl esa bu haqda o‘ylab ham ko‘rmagandi.

– Ha, hali sen shunaqamisan! – qariya baqirib yubordi. – Mening darsimni umuman qilmaysan-mi?! – shunday deb Geraklning boshiga chizg‘ich bilan bir tushirdi.

Boshqa paytda bo‘lganda Gerakl bu zarbani sezmagan bo‘lardi. Uning kallasi qattiq, qariya Linning qo‘llari kuchsiz, qartaygan edi. To‘g‘risini aytganda ham Gerakl hech narsani sezmadi. Lekin yana o‘sha Gera to‘satdan o‘zining g‘oyibiy qahr-g‘azabini sochib qoldi. Qahramonning birdan jahli chiqdi. Kallasida: «– Urdi-ya?! Meniya!! Geraklni!! Yana kallamga! Axir men! Axir! Men!..» – degan so‘zlar aylanardi.


U butunlay aqlini yo‘qotib, qariya qo‘lidan musiqa asbobini olib, uning boshiga urdi. Lin shu zahotiy oq jon berdi. Lekin u mashhur musiqachi, unutilmas Orfeyning ukasi edi.

Bir paytlar bundan ham xunugi bo‘lgan. Bu voqealar Gerakl uylanib, farzandlar ko‘rganida bo‘lib o‘tgan. Ifikl ham farzandlar ko‘ra boshlagan. Ular o‘shanda yetti darvozali Fivada yashardilar. Gerakl o‘z bolalari va Ifiklning farzandlari bilan ko‘pincha maysazorda dam olardi. Xuddi shunday kunlarning birida Ifiklning lolay degan o‘g‘lining qorni og‘rib qoldi. Ifikl o‘g‘lini tabibga qaratib, olib ketadi. Buni kuzatib turgan Gera paytdan foydalanib o‘zining pinhoni qahr-g‘azabini yuboradi. Bu noxush xislat Geraklni asir etgan edi. U o‘z bolalarini Ifikl farzandlariga qo‘shib o‘ldirib qo‘yadi.

Gerakl o‘ziga kelib, atrofni kuzatadi. Nahotki, bu yovuzlikning hammasini o‘zi qilgan bo‘lsa? O‘zining shu qo‘llari bilan-a? Avval kim edi-yu, endi kim bo‘ldi? Buyog‘iga qanday yashaydi? Gerakl shu ahvolda turib ma‘budlarning hukmini kutardi.

G‘azab otiga ningan ma‘budlar ham qo‘zg‘olishib:

– Geraklni jazolash kerak! – deyishdi. – U Zevsning o‘g‘li bo‘lsa-da, ma‘bud emas, o‘limga loyiq, o‘tkinchi odam. Insoniyat qonuniyatlarini buzish uchun unga hech kim huquq bermagan.





Zevs hammadan ko'proq qayg'urardi. U Geraklning oldida ko'zda tutilgan qahramonliklari haqida bironta ma'budga aytolmaydi, hatto, o'zi ham shubhalana boshlagandi. Gerakl hozircha faqat yomonliklarni sodir etdi. Bu ahvolda u ma'budlarga qanday yordam qiladi, pahlavonlar bilan olishishga qudrati yetadimi, bu hali noma'lum edi...

Bu voqealarni yuragiga og'ir olgan Zevs bashoratchi oldiga jo'nadi.

– Endi nima qilamiz? – deb so'radi. – Nahotki, bizga, ma'budlar-u butun insoniyatga kim g'amxo'rlik qiladi, Qadimiy Yunoniston va boshqa shaharlarning ahvoli nima kechadi?

Bashoratchi o'ychan egilgan boshini ko'tarib dedi:

– Yana bir, oxirgi umidimiz bor.

– Qaysi biridan umid qilamiz?.. – so'radi Zevs.

– Gerakldan-da, albatta! – javob berdi bashoratchi. – Faqat u o'zining yomon xislatlaridan tozalanishi kerak.

– Qanday tozalaymiz, yomg'irdami yoki sharros oqayotgan seldami? Men buni darrov uddalayman.

– Bu yerda yomg'ir yordam berolmaydi! – bashoratchi boshini chayqadi. – U juda ham qattiq qayg'urishi kerak. Uni uzoq mud-datga Evrisfey podshoh qo'liga qullikka berishing kerak.

– Axir, Evrisfey qo'rqqoq va razil podshoh-ku! – e'tiroz bildirdi Zevs.

– Qo'rqqoq va razil bo'lgani juda ham yaxshi. Gerakl ko'proq xafa bo'ladi. Qancha ko'p xafa bo'lsa, tozalanish shuncha yaxshi kechadi.

– Bor-yo'g'i, shumi? – sekingina so'radi ma'budlar ma'budi.

– Yo'q, bu hali hammasi emas! – jiddiy ohangda qovog'ini solib dedi bashoratchi. – Ayt-chi, Zevs, Gerakl qancha yomon ishlar qildi, asosan o'lim bilan tugaganini ayt.

– O'n ikkita.

– Ha, unda Evrisfeyning buyrug'i bo'yicha o'n ikkita qahramonlik ko'rsatishi kerak. Amalga oshirilganini sanab bor, siz

ma'budlarning omadingiz bor ekan. U bahaybat yer pahlavonlari bilan olishadi, agarda shu qahramonliklari davrida bironta xatoga yo'l qo'ysa Sizga yordami tegmaydi. Shunga ahamiyat berginki, qahramonlik haqiqiy bo'lishi kerak. Bunaqasini Yer yuzida hech kim undan orttirib bajara olmasin.

– Men unga yordam bersam bo'ladimi? – Buyuk Zevs ruhlanib ketib so'radi.

– Aslo mumkin emas! – bosh chayqaydi bashoratchi kampir. – Agar sen yordam bersang, qahramonlik uniki hisoblanmaydi. Barcha olishuvlar halol bo'lsin. Agar dushman bitta bo'lsa Gerakl ham bir o'zi olishsin.

Zevs o'zining boshqa o'g'li Apollonni chaqirib Geraklga ma'budlar fikrini bayon qilishini buyurdi:

– U ko'p yillar podshoh Evrisfey huzurida qullik qilishini va podshoh buyrug'i bo'yicha o'n ikki qahramonlik ko'rsatishini aytgin, – dedi.

Apollon Evrisfey huzurida hozir-u nozir bo'ldi va:

– Bugundan boshlab Gerakl sening quling hisoblanadi. Sen unga eng mushkul va xavfli vazifalarni topshirgin. Sinovlarning soni o'n ikkita bo'lishi kerak, – dedi.

Evrisfey mamnun bo'ldi. U kuchsiz, qo'rqqoq va razil edi. Geraklga juda hasad qilardi: «Ha – endi bir alamlarimdan chiqib olaman» – dedi.

– Ma'budlar hecham xavotir olmasin! – dedi u Apollonga qarab. – Men harakat qilaman, Gerakl mening buyurganlarimni qiyinchilik bilan bajaradigan qilaman. Agar ko'lmakka o'tirsa, menga juda yoqadi-da. Ha-ha-ha!

Shunday qilib, Gerakl Miken podshohi Evrisfeyning quliga aylandi.



GERAKNING BIRINCHI QAHRAMONLIGI

Evrisfey Geraklning birinchi qahramonligi ustida ancha bosh qotirdi. Nihoyat, to'g'ri keladiganini topganday bo'ldi. U Geraklga Nemeya sherini o'ldirishni buyurdi. Bu sher juda vahshiy, jahldor va yetmaganiga odamxo'r edi. Sher Nemeya shahri atrofida yashardi. Uning bir o'zi ana shu tevarak-atrofnı tozalab chiqardi. Barcha tirik jonni yeb tugatgan, omon qolgani qochib qutulgan edi.

Gerakl xuddi shu sherni o'ldirishi kerak edi. Evrisfey, albatta, sher Geraklnı yeb-tugatishini istar va jang maydonidan o'zi xohlagan xabarnı kutardi.

Zevs esa Olimpda turib Geraklning g'alabasini istardi. Axir sher haqiqatan ham yengilmas edi-da.

Mana, Gerakl Nemeya atrofıga yaqın borib qoldi va to'satdan dahshatli bo'kirishni eshitdi. Bu ovoz shu darajada qo'rqinchli edi-ki, har qanday eshitgan odam joyida jon berardi. Judayam kuchlilari tappa tashlab o'rmalaganıcha joyida yo'q bo'lardi. Geraklga nıma bo'ldi? Yiqildimi? Balki o'lgandir? Yo'q, u xotirjam qadam tashlayapti.

– Hozırcha ketishi yomon emas! – dedi Zevs Olimpdan yerga qarab mamnunlik bilan.

Nemeya sheri o'zını ko'rsatishga chiqdi. Zevs esa yuragini changalladi. U, albatta, sherning bahaybat ekanligını yaxshi bilardi, lekin bunalik kattalığı xayolıga kelmagandi.

– Nıma bo'ldi, – Evrisfey betoqatlanib xabarchisidan so'rayapti, – sher yeb tugatgandir?

– Yo‘q – deb javob berayapti chopar. – So‘nggi xabarlarga qaraganda ular bir-biriga endi yaqinlashyapti, sher esa og‘zini ochdi.

– Sherning tishlari judayam o‘tkir, – qo‘shimcha qildi xabarchi.

– Tirmoqlari-chi, o‘tkirmi?

– Hozir bilamiz-da, – hi-hilaydi xabarchi.

Ular orasidagi oraliq masofa tobora yaqinlashibdi. Sher Geraklga qaraganda ancha tez harakat qilar, Gerakl esa cho‘qmorini yelkasiga tashlab, juda xotirjam turardi. Mana, sherning hammasi tobora yaqinlashyapti. Uning o‘tkir tishlari orasidan taqillab turgan tomog‘i g‘orday yoyilib ochilyapti. Nihoyat, sher bir to‘xtab, yerga oyoqlarini kuchli qadab pahlavonga sakradi.

– Nihoyat, sher Geraklga sakradi, – hozirjavoblik bilan xabar berdi xizmatkor Evrisfeyga yuzlanib.

– Qaysi masofadan, – so‘radi miridan-sirigacha bilishni istagan podshoh.

– O‘n metrlardan.

– Ajoyib sakrash! U tirmoqlarini chiqarishni unutmadimi?

– Tirmoqlari chiqarilgan, masofa yanada qisqarayapti. Sher Gerakl tomonga o‘qday uchib kelyapti. Ularning orasi sakkiz metrga qisqardi.

– Juda ajoyib, ajoyib! – qo‘rqoq podshoh qo‘llarini ishqab qo‘ydi.

– Gerakl nima qilyapti?

– Gerakl sal-pal ham qimirlab qo‘ymayapti.

– Qo‘rqib ketgandir-da, ishtonini to‘ldirib qo‘ygandir! – jirkanch bir qiyofada kuldi podshoh. Xabarchi esa tinmay gapirardi:

– Geraklga yetishga olti metr qoldi... besh... to‘rt... uch...

Shu paytlar Olimpda Zevs o‘z o‘g‘li uchun xavotirga tushayotgan edi.

– Chetroqqa qochgin! – baqirardi Zevs. – Qoya ortiga yashirinmaysanmi!!! Quyiroq egilgin!





Gerakl hech kimni eshitmas, toshday siljimay turib qonxo‘r sherning harakatini kuzatar, ko‘zlariga tik qarardi. Ular yanada yaqinlashishdi. Ikki metr qoldi, bir metr... yarim... Mana sherning o‘tkir tirmoqlari Geraklning ko‘kraklariga botish uchun tayyor. E... E... nima bo‘ldi o‘zi? Oxirgi soniyalarda Geraklning yelkasida turgan cho‘qmori shiddatga tushdi. Qisqa zarba va... Shara-a-a-a-a-a-a-aq!!!

Qandaydir qars-qurs. Nahot Geraklning cho‘qmori singan bo‘lsa? Yo‘q, cho‘qmori baquvvat shumtoldan qilingan. Bu qarsillash – sher bosh chanog‘ining sinishi edi. Sher o‘zini qahramonning oyog‘i ostiga tashlab, so‘nggi nafasini chiqarayapti.

– Yasha, o‘g‘lim! – Zevs o‘g‘lidan minnatdor bo‘lib, atrofga qarab qo‘yar va beixtiyor ko‘z yoshlarini artardi.

– Bo‘lishi mumkin emas! – Evrisfey alamiga chiday olmay xabarchisini savalab ketdi. – Ishonmayman! Bunday bo‘lishi mumkin emas! Javob ber, uning o‘tkir tishlari qayoqda qoldi?!

– Har tarafga sochilib ketdi! – g‘o‘ldiradi xabarchi.

– Tirmoqlari qani, uning, o‘tkir tirmoqlari?!

– Yerdan yotibdi, oyog‘i bilan bir bo‘lib, cho‘zilib yotibdi, – xabarchi to‘g‘ri ma‘lumot berardi.

– E-ha... shunaqami, hali, shoshmay turgin Elladaning qahramoni, men senga ikkinchi sinovni belgilayman va albatta mag‘lub bo‘lasan! – Evrisfey baqirdi va kimgadir mushtini ko‘rsatib g‘oyib bo‘ldi.

Shunday qilib, Gerakl o‘zining birinchi qahramonligini nishonladi.

Oldinda hali o‘n bittasi kutib turardi.



GERAKNING IKKINCHI QAHRAMONI

Lern shahridan uncha uzoq bo'lmagan bir botqoqlikda Gidra yashardi. Bu qo'rqinchli maxluq ajdarboshli bo'lib, boshlarining soni to'qqizta edi. Uning bir boshi o'lmaydigan qilib yaratilgandi. Lerndagi bu maxluq birvarakayiga bir yaylov qo'yni cho'poni bilan qo'shib yeb qo'yardi. U hech qachon jazolanmagan. Evrisfey Geraklga xuddi shu Gidrani o'ldirishni buyurdi.

Buyruq bergan podshoh o'zicha o'ylardi: «Gidrani u yengolmaydi! Sherning kallasi bitta edi, Gidraniki – to'qqizta! Hammasi o'tkir tishli, barisi so'yloq... Gidraning yana bir muhim siri bor. Men buni bilaman, ammo Gerakl bundan bexabar. Gerakl jang paytida qanday ahvolga tushushini tasavvur qilayapman. U bilganda kech bo'ladi, albatta».

Gerakl bu paytda tog'lardan, qirlardan oshib aytilgan botqoqlikka yaqinlashib borardi. Uning yonida – Iolay, Ifiklning o'g'li. Bu o'g'il o'sha o'tloq-da... Geraklning jahli chiqqanida tasodifan tirik qolgan edi.

Zevs Olimpdan turib voqealarni diqqat bilan kuzatib borardi. U ham Lernlik dahshatli maxluqning sirli tomonidan xabardor edi. Shu sababli Geraklga qiyin bo'lishini sezib turardi. Elladaning qahramoni mana shu olishuvda o'lib ketishi hech gap emasdi.

Gerakl botqoqlikning qirg'og'iga kelib narigi tomonda ko'ringan g'orni kuzatmoqda. Xuddi shu g'orda to'qqiz boshli maxluq yashaydi.

– Gerakl amaki, – gap tashlaydi Iolay. – Xohlaysizmi, men shu olishuvda g'olib chiqishingiz uchun yordam beraman.





– Bu haqda gap bo‘lishi mumkin emas! – Gerakl bosh chayqadi. – Olishuv haqiqiy halol bo‘lishi kerak. Yakkama-yakka. Bo‘lmasa, qahramonlik emas, sharmandalik deyishadi.

Shunday deb, Gerakl narigi betdagi g‘orga o‘q uzdi. Uning uzgan o‘qlari oddiy emas, balki qizdirilgan edi. O‘qlar ilon-maxluqning muzday tanasiga birin-ketin sanchila boshladi. Uxlayotgan ilonning oromi buzildi.

Maxluq g‘azab bilan qo‘zg‘alib g‘ordan vishillab chiqdi-da, botqoqlikka sho‘ng‘idi va birdan shundoq Geraklning oldida paydo bo‘ldi. Maxluq to‘qqizta boshini tebratib, Geraklni g‘ajib tashlash uchun intildi.

Gerakl cho‘qmorini ishga solishi bilan maxluqning boshi uzilib tusha boshladi.

Bu paytda shoh toqatsizlik bilan xabar kutardi. Evrisfey xabarchisidan so‘radi:

- U tomonda nimalar bo‘layapti?
 - Gerakl Gidraning boshlarini uchiryapti.
 - Boshlarini? Juda yaxshi. O‘ziga qiyin bo‘ladi. Ha-ha-ha!!!
- Gerakl oltinchi kallani uzdi. Yettinchisini... Sakkizinchi...

To‘qqizinchi... Tugadimi? Qahramon «bori shumidi», deganday qarasa, boshlar kamaymagan, aksincha yana-da ko‘paygan...

Nima sababdandir uzilgan bir bosh o‘rnida ikkitasi paydo bo‘lardi. Pahlavonga noma‘lum bo‘lgan siri ana shu edi.

- Endi uning boshi nechta bo‘ldi? – Evrisfey qiziqib so‘radi.
- O‘n sakkizta! – xizmatga tayyorligini bildirganday javob qildi xabarchi.

Gerakl esa to‘xtovsiz jang qilardi. Bosh o‘rniga boshlar paydo bo‘lardi.

- Nechta bo‘ldi? – baqirdi Evrisfey.
- Yigirma to‘rtta!..
- Nechta?!
- O‘ttiz oltita!..
- Nechta?!

– Qirq sakkizta!

Gerakl boshlarni tinimsiz uchirardi. Nima qilsa bo'ladi? To'xtash mumkin emas! Sanoqsiz boshlar unga tashlanadi: sal bo'lmasa, tilka-pora qilib yuboradi. To'xtashlikning ham iloji yo'q, qancha bosh uzsa, ikki baravariga ko'paymoqda. Qandaydir sehrlangan halqa o'rab olganday. Hech qanday chorasi yo'q. Aslida bir iloj qilsa bo'ladi, lekin Gerakl shu ilojdan bexabar. Faqat Zevs biladi, u esa aytolmaydi. Shartlar shunday og'ir edi. Hozircha Geraklning cho'qmori havoda aylanib boshlarni tinimsiz uchirardi...

Evrisfey quvonchdan qarsak chalayapti, maysazorda o'yinga tushayapti, takror-takror so'rayapti:

– Nechta?

– Ellik oltita!

– Nechta?

– Bir yuzu yigirma sakkiz...

– Qahramonimizning ahvoli qalay?

– Charchadi, tentirab, cho'qmorini bazo'r ko'taryapti.

– Ha-ha-ha! Unga shu kerak edi! Uning buyukligi qimmatga tushdi. Hechqisi yo'q, Gidra uni yamlab yutib yuboradi, ana shunda haqiqiy qahramon, buyuk odam Gerakl emas – men ekanligimni tushunib yetishadi.

Gerakl shu paytda oxirgi kuchlarini to'plab, sonsiz boshlarni tanasidan judo qilardi...

Bechora Zevs esa soqollari qaltirab bo'kirardi, sochlarini yulardi. Ma'budlar podshohi chidab turolmadi, bir chaqmoq chaqnatgan edi, Geraklning oldidagi daraxt yonib ketdi.

Qahramonning olovga ko'zi tushdi-yu, sirni tushundi: «Kuydirish kerak!!! Boshlar uzilgan joy darhol kuydirilsa, yangisi o'sib chiqmaydi».

Tushunishga tushundi-ku, lekin kim uni kuydiradi? Geraklga bir zum to'xtash mumkin emas. Boshlarning soni ikki yuz qirqtaga yetgandi. Shunday tashlanishadiki, kuydirishga ulgurmay qolasan. Chorasini topish qiyim!

Gerakl shunday deb o'ylagan edi hamki, to'pig'ida og'riq sezdi. Bunday qarasa, yirik bir maxluqsifat qisqichbaqa oyog'iga yopishib olibdi. Bu qisqichbaqa Gidraning o'rtog'i, unga yordam berish maqsadida pahlavonga tashlangan edi.

– Ha, Sizlar hali shunaqa jang qilasizlarmi? – Geraklning vazohati battar qo'zidi. – Ikkalangiz bir kishiga?! Shoshmay turinglar. Ey, Iolay, jiyan, sen qayerdasan?!

– Shu yerdaman! – o'rmon tarafdan javob qildi Iolay.

– Nima qilyapsan?

– Qo'ziqorin teryapman.

– Hozir qo'ziqorin teradigan payt emas, yaxshisi menga yordam ber.

– Mumkin emas, dedingiz-ku.

– Oldin mumkin emas edi. Endi vaziyat o'zgardi. Endi bular ikkita bo'lishdi. Biz ham ikkitamiz. Yonayotgan shox-shabballarni olginda uchib ketayotgan boshlarning o'rniga bosgin.

– Men bu ishm bajonidil bajaraman! – Iolay quvonch bilan maxluq boshini kuydirishga kirishib ketdi.

Evrisfey Lern Gidrasiing boshi nechta bo'lganligi bilan hamon qiziqardi.

– Bir yuz saksonta! – xabarchi javob beradi.

– Qanaqasiga bir yuz saksonta? Hozirgina ikki yuz qirqta ediku?

– Endi bir yuz yigirmata... Endi – to'qsonta... Endi qirq sakkizta...

– Ishonmayman! – chinqirdi Evrisfey. – Bu qanaqadir anglab bo'lmas xato!

Hech qanaqa xatolik yo'q edi. Gerakl boshlarni birin-ketin uchirar, Iolay esa tezlik bilan kuydirardi. Maxluqning boshsiz bo'yinlari joyida o'ynab qoldi.

– Sakkizta qoldi, – xabarchi shohga bir qarab qo'ydi. – Olti... To'rt... Ikki... Bitta...

– Tugadi! – dedi Gerakl va peshonasidan terlarini arta boshladi.

– Boshlarni qoyil qilib uchirding! – dedi Iolay g'urur bilan.

– Sen ham yaxshilab kuydirding! – javob qildi Gerakl.

Shunday qilib, Gerakl Lern maxluqini bir yoqli qildi. So‘ng maxluqning tanasini tilib, o‘t qopini yordi-da, o‘t suyuqligi bilan o‘qining uchlariga surkab shimdirdi, uning zahri har qanday zahardan o‘tkir edi!

Evrisfey Gidraning o‘lganini eshitib, birdaniga to‘shak qilib yotib qoldi. Uning harorati ko‘tarildi. Lekin o‘lib qolmadi, balki ko‘rpa tagida yotib Geraklga qanday vazifa bersamki, uddasidan chiqolmasa, qahramonlarcha o‘lib ketsa, deb o‘ylay boshladi.

Zevs esa Geraklning g‘olib kelganini bilib, Olimpda katta ziyofat boshlab yubordi! Uch kecha-yu, uch kunduz momaqaldiroq gumburlab, chaqmoq chaqdi. Bu bir o‘ziga xos mushakbozlik bo‘ldi...



GERAKNING UCHINCHI QAHRAMONIGI

Evrisfey qulay vaziyatni kutib yotgan kunlarning birida Stimfal shahrining tevarak-atrofida g'alati qushlar paydo bo'ldi. Qiron keltiradigan qushlar. Biron odammi, uchragan hayvonmi, xullas, ular uchun ahamiyati yo'q edi: misli tirnoqlari bilan burdalab yoki cho'qib tashlardi. Ularning patidan bironta o'q teshib o'tolmas, urib tushirish amrimahol edi. Qushlarning patlari yaxshilab o'tkirlangan, xohlaganini yarador qilishi mumkin. Ular bu patlarni tepadan aniq mo'ljalga olib tashlar, kimning ko'kragiga, kimning esa boshiga kelib tegardi. Stimfal shahrining odamlari ko'chaga chiqolmay qoldi. Hech kim bunga chora topolmasdi. Bu xabar Evrisfeyning qulog'iga yetdi. U, albatta, xursand bo'ldi!

– U yerda bu qushlardan ko'p ekanmi? – so'radi.

– Bulut bo'lib uchishadi, deb javob qilishdi.

– Geraklga judayam to'g'ri keladigan sinov topildi-ku! Mening o'y-fikrimcha bu qushlar buyuk qahramonni burdalab tashlaydi. Hamma Geraklni esdan chiqarib, faqat men haqimda o'ylay boshlaydi.

Xullas, u Geraklga shu qushlarni yo'qotishni uchinchi sinov qilib berdi. Bu qushlar makon qurgan o'rmonga hali hech kim yaqinlasholmagandi. Gerakl nafaqat yaqinlashib bordi, balki o'rmonni boshiga ko'tarib shovqin soldi.

Gerakl o'rmon yoqasida turib mis bongini to'xtovsiz uraverdi. Hatto, ma'bud Zevs ham buni eshitdi. Qushlar bezovta bo'lishdi. Bari-bari-barisi o'rmon uzra ko'tarilib, Geraklning ustiga «o'q»larini ota boshlashdi. Patiar Geraklning badaniga sanchilmay yerga

tushardi. Chunki pahlavonning mushaklari taranglashib, toshdek qotgan edi. Qushlar bronza uchli patlarini tinimsiz yog'dirardi.

Bu holatni kuzatib turgan Zevs o'qlarning mushaklarga tegmay o'tib ketayotgamini ko'rib: «Bunaqa kuchga to'lgan mushaklar dunyoda bironta odamda bormi? Hech kimda!» – deb o'ylardi.

Evrifey o'zining odamlarini ayg'oqchilik uchun yuborib, qancha o'q Geraklning ko'kragiga, qanchasi yelkasiga, nechtasi esa boshiga sanchilganini aniqlashni buyurardi.

– Bironta ham o'q sanchilmabdi! – dedi xabarchilardan biri.

– Nahotki, yirtqichlar mo'ljalga ololmayapti? – ajablandi podshoh.

– Yo'q, ular bexato otishyapti!

– Xo'sh, demak, o'qlar o'tmas ekan-da!

– Mana, o'zingiz ko'ring, – xabarchilar shohga bronzadan qilingan, jang maydonidan olib kelingan o'qlarning uchini ko'rsatishadi.

Evrifey barmog'ini o'q uchiga tekkazgan edi, birdan barmog'idan qon otildi. Podshoh qo'rqib ketdi va behush bo'lib o'zini bilmay qoldi.

Gerakl qush patlarining kuchli «yomg'ir»i ostida hech narsani sezmaganday qiyofada turardi. Tarang mushaklarni bo'shatish mumkin emasdi. Agar bo'shatsa o'pka, jigar, yurak va boshqa a'zolarga «o'q» sanchilib hayoti xavf ostida qolishi mumkin. Mana, Geraklning qattiq mushaklari yirtqich qushlar yog'dirayotgan o'qlarni devor kabi to'sib turibdi. Bir kun... Ikki kun... Uch kun... turdi. Hatto, tunda ham Gerakl mushaklarini bo'shatmadi.

«Dunyoda yana kim bunday qattiq mushaklarga ega, deysiz?» – so'raydi Olimpda o'tirgan Zevs va o'ziga o'zi javob beradi: – Hech kim!

Evrifey uch-kecha-yu uch kunduz hushsiz yotdi. Nihoyat, o'ziga kelib so'raydi:

– U yoqda ahvol qanday ketayapti?

– Hech qanday o'zgarish yo'q, – deb javob berishdi.





– Bu noyob mushaklarini qachon bo‘shatarkan?! – deb baqirdi, tovushi xirillab qolgan shoh. – Uning kuchlari qachon tugarkin?

Geraklning kuchlari tugamaydi. Qushlarning patlari esa tugayapti. Bu tabiiy, albatta. Ular uch kecha-kunduz patlarini o‘q tegmas Geraklning ustidan yog‘dirishdi. Tanalari ko‘rinay deb qoldi. Xuddi shu vaqti Gerakl og‘ir boshimi baland ko‘tardi.

– O‘q uzish endi mening navbatim, – dedi u.

Gerakl yoyimi tortib o‘q uza boshladi. Bironta ham o‘qi bexato ketmayapti, ba‘zilari ikkitadan qushni urayapti. Qushlar o‘zlarining bronza qoplangan patlaridan ayrilgan edi. Bori ham Geraklning kamonidan otilgan o‘qlarga dosh berolmay yerga tap-tap tushardi. Tegmaganlari Afrika tomon uchib ketishdi. O‘ziyam bazo‘r omon qolishdi. Lekin qanotsiz uchib bo‘ladimi... Ular endi Afrika bo‘ylab chopishardi. Qiron keltiruvchi bu qushlar bora-bora hech qanday zarar keltira olmaydigan tuyaqushlarga aylanib qoldilar.

Shunday qilib, Gerakl o‘zining uchinchi qahramonligini ko‘rsatdi. Bu qahramonlik haqiqatan ham qo‘rqinchli, xavfli va buyuk bo‘ldi.



GERAKNING TO'RTINCHI QAHRAMONLIGI

Evrifsey bu pahlavonga yana qanday topshiriq berish ustida bosh qotirar, uning xato qilishini, sharmanda bo'lishini kutardi. O'ylab-o'ylab, oxiri topdi. «Geraklning mushaklari baquvvat, biroq u qattiq chopishni biladimi? Kerineya bug'usini bir quvib yetsinchi? Ko'ramiz, hali hech kim uni quvlab yetolmagan. Bug'u tez chopadi, buning ustiga charchash nimaligini bilmaydi».

Gerakl ni chaqirib unga vazifani yukladi.

– Yaxshilab quloq sol, sen menga Kerineya bug'usini busbutun va tiriklay olib kelasan. O'z quroling bilan uni yana yarador qilib yurmagin. Agar biron jarohat olganini sezsam, sening bu qahramonligingni hisobga olmayman!

Gerakl Kerineya bug'usi ortidan chopib ketdi. Bug'u tog' oshsa, Gerakl ham oshdi. U chuqurlikka sakrasa, pahlavon ham hatladi. Tekislikdan... daryolardan... Mana bir yildirki, Gerakl bug'uning ortidan quvlaydi. Ortda ham qolmaydi, quvib ham yetolmaydi.

Evrifsey mamnun edi:

– Bir chopsin! Yana bir yilgina. Keyin yana uch yil... So'ngra o'n yil! Lapashang! Ha-ha-ha!!!

Zevs esa xafahol boshini qimirlatardi:

– Agar Gerakl shunday ketadigan bo'lsa, qolgan qahramonliklariga yaramaydi, oldinda turgan asosiy ishi – yerlik bahaybat maxluqlar bilan olisholmaydi. Bu ishni amalga oshirishiga ham o'n-o'n besh yillar qoldi-da. Gerakl tinmay chopardi. U Kerineya bug'usining ortidan eng uzoq shimolga ham chopib bordi, ortiga yana qaytib, janubiy yo'nalish bo'yicha ketyapti. Gerakl og'ir nafas





olyapti. Lekin taslim bo'lmayapti. Uning o'rnida boshqa birov bo'lsami, allaqachon yuragi yorilib o'lib qolardi. Lekin Geraklning mustahkam yuragi tinimsiz uryapti! Oyoqlari ham baquvvat turibdi. Boshqa odamning oyog'i shalvirab qolardi, Geraklniki esa tinimsiz qimirlayapti. Yana ikki yil davomida Kerineya bug'usining ortidan chopdi, so'ng to'xtadi.

«Yo'q, – o'yladi Gerakl. – Bunaqada men uni hech qachon quvlab yetolmayman!»

Ayni shu damlarda Evrisfey o'z o'rtoqlarini chaqirib, Qadimiy Yunonistonning sharmanda bo'lgan qahramoni sharafiga ziyofat uyushtirgan edi.

– Shu o'zimizning Gerakl bo'lsa, u qanaqadir bug'uning ortidan quvib yetarmidi! – shoh o'rtoqlari ichida masxaraomuz gapirardi. – U axir cho'chqam ham quvib yetolmaydi-yu! Ha! Ha-ha! Toshbaqam ham tutolmaydi! Chuvalchangdan ortda qoladi! Ha-ha-ha!

Mehmonlar ham Geraklning ustidan kulardi. Gerakl uchun bu holat kulgili emasdi. U kamonini qo'lga olib, uni tarang tortib mo'ljalloladi. Oldinlab ketgan bug'u sakrab-sakrab uzoqlashib ketardi. Tuyoqlar miltiliab ko'rinadi: oldingisi – orqa, o'ngi – chap... bo'lib tuyuladi. Uchib ketayotgan bug'uga o'q uzish mushkulligini Gerakl tushunadi: faqat tuyoqlarni mo'ljallab otish mumkin.

Geraklning bu xayolini Zevs darhol fahmladi. U axir otasi, ota bolani darrov tushunadi. Zevs faqat ikkilanardi: shuncha uzoqlikdan turib chirpirab uchayotgan tuyoqlarga mo'ljallab o'q uzib tegizish mumkinmikan?! Bunday holatda har qanday mergan xato qiladi. U bandami, ma'budmi, ahamiyati yo'q...

Geraklning ikkilanib o'tirishga vaqti yo'q edi, u kamon ipini qo'yib yubordi va o'q pildirab uchayotgan bug'u tomon yo'l oldi... Xavfni sezgan bug'u yanada tezlashdi. Lekin o'q – o'q-da, baribir yetib oladi. Endi eng asosiysi o'q uming boshiga tegmasdan tuyog'iga tegsim-da.

Zevs nafas yutib o'ylayapti: tegadimi-tegmaydimi? Tegadimi-tegmaydimi?!

– Te-ye-ye-ye-ye-y e-y e-gdi!!!

Butun Olimp titroqqa tushdi. Zevs o‘ynay boshladi, o‘qning aniq mo‘ljalga tekkanidan xuddi bolalar kabi xursand edi. Oyoqlari chalkashgan Kerineya bug‘usi qulab tushdi. Gerakl darhol bug‘uni tutib oldi.

Evrisfey maishat qilardi: go‘sht yeb, ichimlik ichar, o‘rtoqlari bilan Geraklning g‘iybatini qilardi: go‘yo u sustkashmish, chopishga choparmish-u, burilolmashmish. Bir payt, eshik ochilib, Gerakl kirib keldi.

– Mana, sizga Kerineya bug‘usini olib keldim, hech qanday jarohat yetmagan, xuddi kelishganimizday, – dedi Gerakl.

– Bug‘u shumi? – Evrisfey ishonqiramay so‘raydi. – Balki, bu odatdagi bug‘udir?! Bu Kerineya bug‘usimas!

– Kerineyaniki, Kerineyaniki! – Gerakl astoydil bosh chayqaydi.

– Men bunga ishonmayman! – shoh o‘jarlik qildi. – Qani, qo‘yib yubor-chi, ko‘ramiz, biz aytgan bug‘umikan.

– Ko‘ramiz, ko‘ramiz! – mehmonlar ham baqirishdi.

Gerakl ularga qarata:

– O‘zingiz bilasiz! – dedi-da, qo‘yib yubordi.

Bug‘u, albatta, sakray boshladi, mehmonlar uni tutarmidi, hech kim tutolmagan jonivorni-ya... Bug‘u derazadan sakrab qochdi.

– Ushlanglar uni! – Evrisfey xizmatkorlariga buyurdi. Bu ajoyib bug‘uni xizmatkorlar ham tutolmadi. Bug‘u to‘siqlarga chap berib, ozodlikka chiqib ketdi.

– A-ha, – Evrisfey boshini qashlab qoldi. – O‘sha tutib bo‘lmas bug‘uga o‘xshaydi, o‘sha... Kerineya bug‘usi.

Shunday qilib Gerakl o‘zining to‘rtinchi qahramonligiga erishdi. Bu qahramonlik uch yil deganda qo‘lga kiritilgandi!



GERAKLNING BESHINCHI QAHRAMONLIGI

Gerakl Kerineyadagi qahramonligidan so'ng biroz dam oldi. Evrisfey unga keyingi qahramonligi uchun qiyin shartlar izlardi. Uning topgan sharti, Gerakl Erimanf to'ng'izini shohga olib kelishi kerak edi. Bu yovvoyi qudratga ega bo'lgan to'ng'iz Erimanf tog'ida yashardi. U juda ham og'ir edi, ayniqsa jahli chiqqanda yerni shunday timdalardiki, uning zarbidan butun atrofdagi yer tars-tars yorilardi. Bundan odamlar qo'rqrar, yaqin borganni esa o'zining bahaybat qoziq tishi bilan yorib o'ldirardi.

«Bunaqa to'ng'izning uddasidan Gerakl chiqolmasa kerak! – o'ylardi Evrisfey. – Mabodo, omadi kelib to'ng'izni o'ldirgan taqdirda ham bu yergacha ko'tarib kelolmaydi! Agar ko'tarib keladigan bo'lsa, mayib bo'lishi tayin. Shunda uning qahramon emas, balki oddiy lapashang ekanligini tushunishadi. Men – haqiqiy qahramonman!»

Shoh bu o'ylarni ko'nglidan o'tkazguncha Gerakl Erimanf tog'ining yonida turardi. U yo'l-yo'lakay donishmand kentavr Folni ham ziyorat qilib o'tdi. Kentavr xursand bo'lganidan uning nomiga ziyofat tashkil qildi.

Mana, ular o'choq atrofida o'tirib, yeb-ichishyapti va hayot haqida suhbatlashmoqdalar.

– Azizim Gerakl, sen uchun men ajoyib bir ichimlik olib qo'yganman, – dedi Fol qo'shquloq ko'za keltirib. Ko'zaning og'zini ochganda atrofni xushbo'y hid tutib ketdi.

Bu ichimlikning xushbo'yligi faqatgina Geraklni emas, balki donishmand bo'lmasa-da, boshqa kentavrlarni ham sarxush etdi. Kentavrlar mag'rur turishardi.

– Bu qanday bo‘ldi? – ajablanishardi ular. – Bu xushbo‘y ichimlik – kentavrlarning g‘ururi-ku. Biz bu ko‘zani uch yuz yildan beri saqlaymiz, uni ochish, xushbo‘y hididan bahramand bo‘lish uchun qulay bir tantanali sababni kutayotgan edik. Bu aqli pishib o‘tgan Fol qanaqadir ikki oyoqli Geraklni mehmon qilsa-ya. Yo‘q, biz bunga yo‘l qo‘yolmaymiz! Hozir borib uning aqlini kirgizib qo‘yamiz, mabodo qarshilik ko‘rsatsa – o‘ldiramiz.

Bu g‘ururi balandlar kim bilan muomala qilayotganlarini bilishmas edi. Gerakl ulardan zig‘ircha qo‘rqmadi, darrov o‘rmidan sakrab turdi-da, chala kuygan tarashalarni ularga ota boshladi. Kentavrlar qochib ketishdi. Gerakl bir amallab o‘zini to‘xtatishi kerak. Kentavrlar kaltafahm bo‘lishsa-da, zararsiz, xafa bo‘lmaydigan, jahllaridan tezda tushadigan to‘rtoyoqlilar. Lekin Gerakl o‘zini to‘xtatolmadi. Albatta, o‘sha... Gera sababli-da... Geraning jini Geraklni butunlay vahshiylashtirib yubordi. O‘q ortidan o‘q uchardi... o‘qlarning biri kentavrning tizzasiga sanchildi. Bu oddiy kentavr emas, u donishmand Xiron – Geraklning qadrdon do‘sti edi. U belanchakda yotganida qarashgan. Geraklga bobo o‘rnida edi. Gerakl o‘ziga keldi.

– Nima qilib qo‘ydim? – baqirib yubordi u. – Axir o‘qlarning uchi Lern gidrasining o‘ti bilan zaharlangan, bu zahardan yaralangan jonzot o‘ladi-ku!

Gerakl chidamli bo‘lishiga qaramasdan yig‘lab yubordi, qolgan kentavrlar ham yig‘lashdi. Barining aqli kirib qoldi.

– Eh, – xo‘rsinishdi ular. – Qanaqadir xushbo‘y ichimlik deb bo‘ldi bari. Agar shunday bo‘lishini bilganimizda bu ichimlikni Fol bilan buyuk Gerakl ikkalasi ichishardi – qo‘yardi. Bu voqealar sodir bo‘lmasdi.

Gerakl o‘layotgan Xironni tashlab ketishga majbur bo‘ldi, uni Erimanf tog‘i chorlayotgan edi. Ha, o‘sha jahлга mingan va zilzambil to‘ng‘iz kutardi.

Oyoqlarini yerga urib, to‘ng‘iz Geraklning yo‘liga qarab turibdi. Xuddi yerni yorib yuboradiganday vajohatli edi u!





Evrifey oqarib ketgan qulog'ini yerga qo'yib eshitayapti.

– Eshityapman, – xursand bo'ladi shoh, – men Geraklga havas qilmayman. Menimcha, hozir yerga yiqilib, kechirim so'rayotgan bo'lsa kerak.

Zevs bulutlar ortidagi Olimpda uxlab yotardi, gumburlagan tovushlarni eshitib, uyg'onib ketdi va yerga qarab angrayib qoldi.

– Nahotki, bu yorug' dunyoda shunday to'ng'iz bor?! – hayratlandi u. – Uning og'irligi qancha ekan? Gerakldan uch baravar og'irov (hammasi tugaganda to'ng'izni tarozida tortib ham ko'rishdi – Gerakldan yigirma baravar og'ir chiqdi). U yerni shunday tepardiki, birgina yer emas, Olimp ham larzaga kelardi. «To'ng'iz – to'ng'iz-da, bekorga vahima qilayapti, mening o'g'lim baquvvat, oyoqda tik turishini qarang!»

Haqiqatan ham Gerakl oyoqda mustahkam turar, qimirlab ham qo'ymasdi. Yer uning atrofida larzaga kelardi: quyon, tulki va boshqa jonivorlar chirpirab dumalar, oyoqlarini osmonga qaratib, jon talvasa qilardi. Faqat Gerakl parvo qilmas, vahimaga tushmasdi.

To'ng'iz bu pahlavonni o'zining yer qimirlatishi bilan qulatib bo'lmasligini tushundi va jon achchig'ida toqqa qarab qochib ketdi. Gerakl quvladi. Tobora balandroqqa ko'tarilishardi... Tog' cho'qqisi qor bilan qoplangandi. Bahaybat qor qalpoq kabi bosib turardi. Ana shu qalpoq silkina boshladi. Chunki, tog'ning o'zi qimirlayotgan edi. Bu to'ng'izning ishi edi.

– Sekinroq, tog' tepasida qor ko'chkisi bor! – Zevs baqirardi, lekin ulgurmadi. Vahimali qorli qalpoq joyidan ko'chib to'ng'izni va Geraklni surib kela boshladi.

– Ura-a-a-a! – Evrifey baqirib yubordi. – Nihoyat, men Ellada qahramonidan qutuldim. Men ma'budlar iltimosini qoyillatib bajardim. Mana oqibati: Gerakl – endi yo'q. Men esa – borman!.. Men borman, Gerakl – yo'q!.. Ura!!!

Shu payt xabarchi chopib kelib, ma'lumot berib qoldi:

– Hu, ana u yerda qor tagida nimadir qimirlayapti.

– Nima qimirlashi mumkin? Ikkita to‘rt qavatli saroy balandligicha keladigan qor tagida nima bo‘lishi mumkin? – xafa bo‘ldi Evrisfey.

– Bilmadim, – xabarchi yelkasmi qisib qo‘ydi. – Lekin qattiq qimirlayapti. Borib yana bir qaray-chi.

Shu payt Olimpda ham, qayg‘u hukmron edi. Zevs o‘g‘li o‘lgan bu qayg‘uli kunda olimpliklarga kulish, ichimlik ichish, kuylash, musiqa chalish, hazillashishlarni taqiqlab qo‘ydi, chunki o‘g‘li bilan butun ma‘budlarning orzu-umidlari o‘lgan edi.

Evrisfeyning xabarchisi qaytib:

– Qor tagidan kattakon to‘ng‘iz kallasi chiqib turibdi, – dedi. Shu payt ikkinchi xabarchi kelib shunday dedi:

– Qor tagidan to‘ng‘iz to‘liq ko‘rindi.

– To‘ng‘iz degani shunaqa! – xursandligini yashirolmadi Evrisfey. – Buni qarang, shunday qor uyumidan o‘zi chiqib kelsa-ya.

– O‘zi emas, – to‘g‘rilab qo‘ydi uchinchi xabarchi, – Gerakl yelkasida ko‘tarib chiqdi.

Bir zumda Evrisfeyning baxti qaro bo‘ldi.

– Bu qanaqa yaramas! – baqiradi baxtiqaro Miken shohi. – Biz uni hozir dafn qilgandik, yana u yelkasida to‘ng‘izni ham ko‘tarib kelyaptimi?

– O‘h, men ahmoq! – baqirdi Zevs. – Men o‘g‘limdan ayrildim, desam u to‘ng‘izni yelkasida ko‘tarib kelyaptimi?!

Miken shohi achchiq-achchiq yig‘lay boshlaydi. Olimp ma‘budlarining shohi esa barcha olimpliklarga o‘yin-kulgi, hazil-huzul qilishni buyuradi. Gerakl tirik ekan orzu-umidlar ham o‘lmagan!

Gerakl Evrisfey oldiga tirik Erimanf to‘ng‘izini olib keldi. Bu bahaybat maxluqni uzoqdanoq ko‘rgan shoh kattakon bronza idish ichiga yashirinib oldi. Shu yerda Geraklning beshinchi qahramonligi tan olindi.

GERZKINING OLINCHI QAHRAMONIĞI

Qadimgi Yunonistonda bir podshoh yashardi. Uning ismi Avgiy edi. Uning juda ko'p ho'kizi bo'lib, oddiy emas, hammasi ajoyib va g'aroyib edi.

Uch yuztasi qizil, xuddi lola qizilidek; yana uch yuztasi ko'kish, go'yo feruza toshi singari; qolgan uch yuztasi oppoq, ayni o'rdakrang deysiz. Shohning eng yaxshi ko'rgan ho'kizi butunlay boshqacha, o'zining chiroyi bilan barchani rom etardi.

Bularning hammasi odatdagi hayvonlar turadigan qo'rada yashardi. Qo'ra juda xarob ahvolda edi. Chunki juda ko'p yillar davomida tozalanmagan edi-da. Shu sababli go'ng qat-qat bo'lib ketgan. Shunday chiroyli, ajoyib ho'kizlar tizzasidan go'ngll balchiqda turardi. Bu Avgiyga ham yoqmasdi. Go'ng kun sayin ko'payardi. Endi go'ng ho'kizlarning ko'kragiga kelib qolgandi.

Yana kunlar o'tib go'ng balchig'i ho'kizlarning yelkasiga keldi: chiroyli, rang-barang ho'kizlar endi tamoman ko'milib qolgandi. Faqat burunlarini, shoxlarini chiqarib nafas olishardi, xolos. Endi qaysi ho'kiz lola qiziliday qizil, feruza rangiday ko'k, o'rdakday oppoq ekanligini aniqlab bo'lmasdi. Xullas, ho'kizlarning oltinrang shoxlari sassiq go'ng balchig'idan tepada beqiyos tovlamb Avgiyga shon-shavkat keltirib turardi.

Avgiy ahvolni ko'rib yurib, qo'llarini osmonga cho'zib iltijo qila boshladi:

– Mening jonivorlarim turadigan qo'rani tozalab beradigan odam topilarmikan?!

Bu iltijoli ovozni Evrisfey eshitib qoldi va taqdirning o'zi menga sovg'a tayyorlayapti shekilli, dedi. U Geraklga shoh Avgiyning qo'rasini tozalashni buyurdi. Shoh Gerakl go'ng balchig'i ichida qolib ketsin, deb xayolidan o'tkazdi. Ana shunda sharmandalikni ko'rasiz. Qahramon – balchiqqa cho'kib ketibdi... Ha-ha-ha! Go'ng ostida qolib ketsa, butun umr kurak bilan axlat tozalaydi... Buyuk qahramonning go'ng tozalab yurishi kulgili-da. Hamma uning ustidan kuladi. Memi esa hurmat qilishadi.

Evrisfey o'ylagandek qildi: Qadimiy Yunonistonning buyuk qahramoniga shu og'ir va yoqimsiz ishni topshirdi.

Gerakl molxona yoniga keldi, go'ng hidi dimog'iga urdi. Atrofni, yerni ko'zdan kechirib chiqdi, ko'rdiki, shundoq yonidan ikki daryo – Alfey va Piney oqib o'tardi.

– Tushu-na-a-arli, – o'zicha g'uldiradi u va Avgiy shohming yoniga bordi.

U shohga shunday dedi:

– Men bu mol qo'rasini bir kunda tozalayman.

– Uddasidan chiqolmaysan, – dedi Quyosh ma'budasi Geliosning o'g'li Avgiy va shohona kerilib qo'ydi.

– Men aytgamimni qilaman! – Gerakl o'z so'zidan qaytmaydi.


– Garov o'ynaymizmi?

– Garov o'ynaymiz!

– Agar shu katta ishni bir kunda bajarsang, butun ho'kizlarimning o'ndan bir qismini senga beraman. Agar ulgurmasang, qolgan umringni shu qo'rada ishlab o'tkazasan. Evrisfey bilan o'zim kelishaman.

Zevs bunday chala-chatti shart qo'yadigan bo'lsa rozi bo'lma, deb Geraklga baqirmoqchi edi, biroq Gerakl rozilik berib qo'ygandi.

– Yashavor, Avgiy! – Evrisfey shohni maqtab qo'ydi. – Zo'r o'ylab topding. Gerakl mening qulim bo'lsa ham men roziman, eng asosiysi sening shu ishing bilan qahramon bo'lmay sharmandasi chiqsa bo'lgani.





Avgiyning o'zi ham bundan xursand, axir molqo'rani bir kunda tozalab bo'lmasligiga ko'zi yetardi-da. Shunda u podasini ham butun saqlab qoladi va doimiy xizmatkorga ega bo'ladi. Avgiy jilmayib Geraklga kurakni tutqazdi va: – Qani, boshla, – dedi.

Gerakl kurakni qo'liga olmadi. U Avgiyga:

– Xizmatkorlaringga buyursang, barcha ho'kizlaringni shoxidan zanjir o'tkazib, mahkamroq ustunlarga yaxshilab bog'lab tashlasin.

– E-e... bu nimasi? – ajablandi Avgiy.

– So'ng o'zing bilib olasan! – javob qildi Gerakl. Avgiy yelkasini qisdi, lekin buyruq berdi.

Gerakl toqqa chiqib ketdi. Ikkita cho'qqining uchini sindirib, ikki daryoni: Alfeyni ham, Pineyni ham to'sdi. Daryolar oldingidan boshqacha oqa boshladi. Oldinlari molxonaga yetmay oqsa, endi molxonani yuva boshladi. Suv go'ng rangiga kirib oqdi va qandaydir yarim soatda hammayoqni top-toza qilib ketdi. Agar ho'kizlar ustunlarga yaxshilab bog'lanmaganda edi, ularni ham oqizib ketardi.

Toshqin suv ho'kizlarning tanasini tozalab, yana oldingiday yaltiratib qo'ydi.

Hammasidan tovlangani Avgiyning eng yaxshi ko'rgan ho'kizi – oltin-ho'kiz edi. Avgiyning o'zi esa kulrang tus, tund holatga kirdi. U Geraklga berishi kerak bo'lgan ho'kizlar haqida o'yladi, bergisi kelmadi va:

– Bor ketaver! Hech narsa olmaysan, – dedi.

– Bo'pti! – muloyim javob qildi Gerakl. U yana toqqa chiqib to'g'onlarni buzib yubordi, daryolar yana o'z hoida oqaverdi. Shundan so'ng Gerakl Evrisfey yoniga qaytdi.

Avgiy o'zining va'dasini bajarmay to'g'ri qildim, deb o'ylardi, lekin u xato qilayotgandi. Oradan yillar o'tib, Gerakl Evrisfey xizmatidan bo'shagandan keyin Avgiy podsholli hududidan o'tib qoldi. Geraklning har doimgi kasali qo'zib, ma'buda Geraning qahrg'azabi uning yelkasiga minib oldi va eski xafachilikni eslab Avgiy

podsholigiga hujum qildi. U barcha xizmatkorlarni, ho'kizlarni va albatta, Avgiyni ham o'ldirdi. Birdan o'ziga kelib ho'kizlarning bir qismini Olimp ma'budalari sharafiga qurbonlik qildi. Eng chiroyli, Avgiyning sevimli oltin ho'kizini otasi Zevs sharafiga so'yirdi.

Qurbonlik Olimp ma'budlariga yoqib tushdi va shu joyda Olimpiya o'yinlarini ta'sis qilishni Geraklga maslahat berishdi. Gerakl aynan shunday qildi. O'sha ho'kizlar turgan molxona o'rnida dunyoda birinchi Zevs nomidagi o'yingoh (stadion) paydo bo'ldi.

Shu bilan ish tugamadi. Gera yuborgan qahr-g'azab kuchi Geraklni tinch qo'ymadi va u Avgiyning hamkorlari ham borligini eslab qoldi. «Ulardan ham qasos olish kerak», – deb o'yladi Gerakl. Buning ham uddasidan chiqdi. Ayniqsa, Pulos shohi Neley qilmishiga yarashasini oldi. Gerakl Neleyning o'ziga qo'shib o'n ikkita o'g'lini ham o'ldirdi. Hatto, Neleyning dengiz hukmdori Poseydondan sherga, ilonga, asalariga aylanish qobiliyatini olgan o'g'li Periklimen ham omon qolmadi.

U o'limi oldidan asalariga aylanishni ham o'ylagandi, lekin Geraklning sherni ham, ilon-u asalarini ham omon qoldirmasligini bilardi. Baribir, harakat qilib asalariga aylandi va ot arava g'ildiragiga qo'ndi. Gerakl asalarini sezib qoldi va sehrli kuchi bilan jahl ustida qattiq bir urganida nafaqat asalari, balki otini ham qo'shib o'ldirib qo'ydi.

Voqea ana shunday fojiali tugadi. Bu shoh Avgiy so'zida turmaganligining natijasi edi. So'zida turganda yaxshi bo'lardi!



GERAKLNING YETTINCHI QAHRAMONLIGI

Evrisfeyning shu paytgacha o‘ylab topgan shartlarini Gerakl Qadim Yunoniston tuprog‘ida bajaragan edi. U yettinchi qahramonligini Krit orolida bajarishiga to‘g‘ri keldi.

Mana, bu, Yunoniston. Bunisi Krit oroli. Ular orasida kattakon dengiz yastanib yotibdi.

Gerakl orolga yetib olishi va Krit ho‘kizini jilovlab Mikenga olib kelishi kerak edi. Shoh Evrisfey bu vazifani shunchaki bermagandi. Krit ho‘kizining kattaligi ikki qavatli uy bilan tenglashardi. Eng muhimi, u quturgan, bejiz emas-da... Bu ho‘kizni yerni tebratib turuvchi ma‘bud Poseydon Krit oroli podshohiga yuborgandi. Minos bu ho‘kizni uning sharafiga qurbonlik qilishi kerak bo‘lgan. Minos esa, bunaqa noyob ho‘kizni ko‘zi qiymay, ayyorlik qilgandi.

U ma‘bud Poseydon sharafiga xunukroq ho‘kizni qurbonlik qilgandi. Poseydon, albatta, buni sezib qolgan va sovg‘a qilgan ho‘kiziga quturishday yomon xislat yuborgan. Xuddi shu kundan boshlab Krit orolida hayot do‘zaxga aylangan edi. Bu bahaybat ho‘kiz orol bo‘ylab shataloq otar va yo‘lida nimaiki duch kelsa tekislab, supurib ketardi.

Mana, uning yo‘lida Gerakl paydo bo‘ldi. Ho‘kiz hayron... Shu vaqtgacha hali hech kim uning yo‘lida bunchalik xotirjam turmagan. Ho‘kiz yaqin kelib botirni katta qiziqish bilan hidlab chiqdi. Bir vaqti yelkasida nimanidir sezganday bo‘ldi, qarasaki, hidlagan botiri ustiga o‘tirib, shoxidan mahkam ushlab turardi. Bunday ahvolga tushganidan ho‘kiz battar g‘azablendi. U yelkasida qandaydir «chavandoz» o‘tirganini ko‘rib, darg‘azab bo‘lib, shataloq

otdi, sakradi, chavandozni yiqitishga harakat qildi. Krit vahshiysi shu paytgacha bunday ahvolga tushmagan edi.

Agar kimdir shunday yelkasiga chiqib olsa, darhol jomidan umid qilmasa bo'laverardi. Gerakl esa hamon tirik, u ho'kizning ustida o'tirardi. Ho'kiz tinimsiz shataloq otardi. Gerakl qimirlamay o'tiribdi. Bir soatlar o'tirdi... Ikki soat o'tirdi...

Olimp ma'budlari buyuk jasorat egasini katta qiziqish bilan kuzatishardi. Qani, kim-kimni yengarkin? Ayniqsa, Zevs ko'proq qiziqmoqda edi. U chuqurroq o'ylaydi. Ayni paytda barcha olimpliklarning va qadim yunon tamaddunining taqdiri hal bo'layotgandi. Poseydon ham yerni kuzatayapti va kallasini qimirlatayapti. U Krit ho'kizining kuch-qudratini bilib turardi. Bu ishni o'zi boshlagan, bunday dahshatli quturishni ham o'zi bergandi. O'limga mahkum etilgan odam uning ustida bir lahzagina o'tirishi mumkin, Gerakl esa uch soatdan beri o'tiribdi. To'rt soat... Besh soat... Aql bovar qilmaydi!

Evrisfeyning xabarchilari birin-ketin kelib Geraklning ahvolidan xabar berib turibdi. Qo'rqoq shoh qo'llarini ishqab, hamtovoqlariga qarata:

– Tamom, Gerakl tugadi, – dedi. – Bu safar u qutulib ketolmaydi. Yana yarim soatcha ushlab tura oladi, so'ng uchib ketadi, ho'kiz uni tuyoqlari ostiga olib... Keyin shoxlari bilan...

Evrisfey hatto kim bilandir Gerakl ho'kiz ustida kechgacha turolmaydi, deb garov o'ynamoqchi edi, lekin yutqazib sharmanda bo'lishdan qo'rqdi. U o'z-o'zi bilan garov o'ynadi. Butun hukmronligini tikkandi. Yutqazib qo'ydi. Yaxshiyam o'ziga o'zi yutqazdi, bironta begonaga yutqazgandami. Hozir podsholigidan ajralib, hamon ho'kiz ustida o'tirgan Geraklga la'natlar aytayotgan bo'lardi.

Qorong'i tushib qoldi, lekin ho'kiz o'sha-o'sha bezovta. Gerakl ham uyg'oq, mahkam ushlab o'tiribdi. Olimp ma'budlari ko'kda unga hurmat bilan termulishadi. «Men bu quturgan ho'kiz ustida bir daqiqacha o'tirarmidim?» – deb o'zicha o'ylashadi.





Faqat Zevs o'zi haqida o'ylamayapti. O'g'lini o'ylaydi. Geraklga hozir qanchalik og'ir. Hatto ko'zlari mudraganda ham ho'kiz shoxidan mahkam ushlab o'tirdi, yerga qulab tushmadi.

Ma'budlar ko'kdan qarab g'ururlanishyapti. Ho'kizni ham, Geraklni ham maqtab qo'yishyapti. Faqat «Kimning birinchi bardoshi tugaydi, kim mag'lubiyatini tan oladi?» – degan savol hammasini qiziqtirardi.

Ho'kiz bardosh bermadi. Xuddi yiqilganday, o'lik kabi cho'zilib uxlab qoldi. Uyg'onganida yuvosh, bo'ysunuvchan bo'lib uyg'ondi. Endi xuddi xo'jayinning qari biyasiday, Gerakl qayoqqa bursa o'sha yoqqa ketardi.

Gerakl avvaliga ho'kizni kemaga ortib, Yunonistonga qarab suzib ketmoqchi edi, lekin bu bahaybat hayvonni kema sahniga olishdan bosh tortishdi. Shunda Gerakl ho'kizni to'g'ri dengiz girdobiga boshladi.

Evrisfey ham xuddi shuni kutib turgandi. Krit ho'kizi suvda suzolmasligini shoh yaxshi bilardi.

– Qadrdonlar! – dedi Evrisfey maishat qilayotganlarga qara-ta. – Sizni bir xushxabardan ogoh qilmoqchiman. Gerakl um-monga g'arq bo'ldi!

– Ura!!! – qichqirishdi mast bo'lishgan mehmonlar. – Salom, ey, dengiz chuqurligi!

Evrisfey hammani quchoqlab, go'yo g'alaba nashidasini surardi.

– Yaxshiyam-ki, Krit ho'kizi sho'r dengizda suzolmaydi, – deb xursandchiligini bildirardi mehmonlar.

Lekin ular dengiz hukmdori Poseydonning ho'kizga quturish alomatini beribgina qolmay, tiniq va sokin suzish xislatini yuqtirganidan bexabar edilar. Bahaybat ho'kiz ustida mag'rur o'tirib suzayotgan Geraklni ko'rgan barcha kemalar unga yo'l bo'shatardi.

Evrisfey uch kundan beri Geraklning mag'lubiyatini bayram qilardi. U ajoyib ichimlik ichib, go'shtlardan tamaddi qilayotib, hovlidan Geraklning ovozi kelayotganini eshitdi:

– Evrisfey, derazadan bir qaragin! Mana, men senga kimni boshlab keldim!

Bu tasodifdan shohning tomog‘iga yutayotgan go‘шти tiqilib qoldi va nafas ololmay ko‘kara boshladi. Dahshatga tushgan mehmonlar ham telbaga o‘xshab qo‘llarini silkishardi. Hamma mima qilarini bilmay qoldi. Evrisfey yana bir daqiqa o‘tsa o‘lardi. Buni sezgan Gerakl yugurib kelib shohning yelkasiga aniq va qisqa qilib urib qo‘ydi. Uning tomog‘idan tiqilgan go‘شت otilib chiqdi. Shoh o‘limdan qutulib qoldi, u ko‘zlarini katta-katta ochib, o‘z xaloskoriga qaradi. Geraklning tirikligiga endi hech qanday shubha qolmagandi. Hovlida esa Kritning quturgan ho‘kizi yer tirnab turardi.

Evrisfey Poseydonning quturgan ho‘kizini o‘z mollariga qo‘shishdan qo‘rqdi va uni qo‘yib yubordi. Endi ho‘kizning yelkasida hech kim yo‘q. Ho‘kiz ozodlik gashtini his qilib, o‘zining quturgan xislatini esladi. U bo‘ronday qo‘zg‘olib, butun Qadim Yunonistonni kesib o‘tib, shimolga Attikadagi marafon maydoniga yaqinlashdi.

Xuddi shu yerda uni afinalik Tesey degan qahramon o‘ldirdi.



GERAKNING SAKKIZINCHI QAHRAMONLIGI

Krit ho'kizi sarguzashtlaridan keyin Evrisfey Geraklni Frakiya shohi Diomedning oldiga jo'natdi. Uning otlaridan olib kelishi kerak edi.

– Bu otlarni senga bajon-u dil berib yuboradi, – ayyor Evrisfey «Xo'p bo'ladi» deb ketuvchi Geraklga va'dalarni quyuq qildi. – Otlari juda hurkak, ular shunchalik zararsizki, sen bu ishni bemalol uddalaysan! Bu qahramonlik sening sarguzashtlaring ichida eng yengili bo'ladi.

Zevs o'zining chaqmog'i bilan Evrisfeyni bir yoqli qilmoqchi edi, lekin o'zini tutib qoldi. Bunday qilish aslida oson emasdi. Ammo shoh Geraklni yana aldayotgan edi-da.

Birinchidan, Diomed o'z otlarini juda qadrlar va ular uchun hayotini berishga ham tayyor edi. O'zinikini bo'lmasayam, birovnikini bemalol baxshida etardi. Shoh o'z otlarini odam go'shti bilan boqardi. Shaharga kelib qolgan barcha begonalarni ularning oldiga tashlardi. Otlari judayam shafqatsiz, darg'azab bo'lganidan, zanjirlar bilan mahkamlab bog'lab qo'yilgandi. Diomedning faqatgina otlari shunaqa bo'lmasdan, balki butun frakiyalik aholi darg'azablikda nom chiqargandi. Ular Qadim Yunonistonda bolta otishga ustasi farang edilar. Agar biron narsa bo'lsa, o'ylab o'tirmay kichikroq, ammo juda o'tkirlangan boltalarini uloqtirishardi.

Gerakl agar bu joylarga qadam bosadigan bo'lsa, hech narsada gumon qilinmasdan boltalar ostida qolishi mumkin. Hozircha u Frakiyaga kemada suzib kelyapti, kema Fera shahri yonidan o'tyapti. Bu shahar hukmdori Geraklning do'sti Admet edi. «Shu

do'stimni yo'l-yo'lakay bir ziyorat qilay, – deb o'yladi Gerakl. – Admetnikida har doim o'zimni yaxshi his qilaman».

Bu safar Admet qarorgohida xursandchilik emas, g'am-anduh hukmron edi. Chunki podshohning xotini o'lim talvasasida yotardi. Sababi Admet ilohiy bir sirdan ogoh bo'ldi. Xabar beruvchilar Admetning o'lim soati, kunini ham aniq aytishdi va agar o'lim oldidan kimdir Aidning jirkanch podshohligiga kirishni istasa, uning hayoti saqlanishini uqtirishdi.

Mana, o'sha o'lim soatlari ham yaqinlashib qoldi, lekin hech kim Admetning hayotini saqlab qolish uchun o'liklar podshohligiga qadam bosishni istamadi. Faqat yoshgina, ajoyib, go'zal xotini bunga rozilik berdi. Admet buni xohlamadi va xotiniga bu qaroridan voz kechishni so'radi, lekin ayoli o'z so'zida turib oldi.

– Sensiz men yashashni istamayman! – baqirardi baxtiqaro Admet.

– Yo'q, men sensiz yashashni istamayman! – jimgina javob qaytardi ranglari oqarib ketgan Alkestida.

– Yo'q, men! – terlab pishadi Admet.

– Yo'q, men! – tinchlantiradi nozikkina Alkestida.

Dunyoda hech qanday kuch bu sohibjamol ayolning qarorini o'zgartira olmaydi. U olamdan ko'z yumayapti...

Bu yosh ayolning lablarini so'nggi nafaslar tark etayapti. Bari tugadi. O'lim ma'budi jirkanch Tanat o'z o'ljasini qabul qilib olishga ham ozgina vaqt qolyapti. U Alkestidaning boshidan bir tutam soch tolalarini qilichi bilan kesib olish uchun Admet saroyiga yaqinlashmoqda.

Saroyning boshqa darvozasidan shu payt Gerakl ham kirib kelardi.

– Salom, do'stim Admet! Biz uzoq ko'rishmadik!

Admet Geraklni bag'riga bosdi va o'zining ulkan qayg'usimi ko'pam bildirmadi. «Mayli, – o'ylaydi u, – Gerakl dam olib, xushchaqchqlik qilsin, biz o'z g'am-tashvishimiz bilan xalaqit bermasligimiz kerak».





U o'z xizmatkorlariga Gerakl uchun bazm-u jamshid uyushtirishni buyurdi, o'zi esa xotinini dafn qilish uchun ketdi.

Gerakl bazm qilib o'tiribdi. Ichimliklardan ichyapti, qo'shiq aytayapti va musiqa tinglayapti. U birdan xizmatkorlar yuzida qayg'u alomati borligini payqab qoldi.

– Ey, bolalar, – dedi Gerakl, – Siz nega xafa ko'rinasiz? Qani, nima bo'lganini bir boshdan aytinglar-chi!

Xizmatkorlar voqeadan xabardor qilmaslikka buyurilgan bo'lsalar ham aytishga majbur bo'lishdi.

– Eh, men qanaqa e'tiborsizman! – xafa bo'ldi Gerakl. – Do'stimning boshiga shunday g'am-tashvish tushib tursa-yu, men ichimlik ichib, o'yin-kulgi qilsam!.. Qanaqa ahmoqman, o'zi. Bechora Admetga hozir juda og'ir. O'lim ma'budi bu ishlarning boshlovchisi. Tanat, to'xtab turgin!

Gerakl qabrga yaqinlashib kuta boshladi. Qabr yonida qurbonlikka atalgan bir kosa qon turardi. Tanat qon ichishni juda yaxshi ko'rardi. Har doim kimdir o'lsa, uni olib ketish uchun ana shu qon to'ldirilgan kosaga yaqinlashib kelardi. So'ng bir tutam sochidan qirqib olardi. Kimning sochini qirqqan bo'lsa, o'sha Aidning jirkanch dargohiga yo'l olardi. Ana, tepadan qop-qora qanotlarini yozib Tanat uchib kelayapti. Uning sharpasini Gerakl ham eshitdi. Yerga tushdi-yu o'zini kosaga urdi... Tutoqib qon simira boshladi. Ichib bo'lib Alkestidaga yuzlandi. Qilichini sug'urib oldi va murda sochidan bir tutamini qirqib olmoqchi edi... Gerakl unga:

– Shoshma! – dedi va qilich chopmoqchi bo'lgan qo'lidan mahkam ushladi.

– Sen kimsan o'zi? – hayron bo'ldi Tanat. – Men o'z vazifamni bajarayotganimda biron kimsa shu paytgacha qo'limdan ushlashga jur'at etmagan.

Tanat qilich tutgan qo'llarini Alkestidaning boshi uzra ko'targan edi, Gerakl Tanatning qo'lidan mahkam ushlab qilich-pilichi bilan balandga ko'tarib turaverdi. Keyin qo'lini butunlay qayirib, qilichini tushirib yubordi. Endi hayot va o'lim uchun jang boshlangan edi.

– Sen meni kim bilandir adashtirmayapsanmi? – dedi Tanat og‘ir nafas olarkan. – Axir, men Tanatman-ku, mendan barcha odamlar qo‘rqadi, hatto ma‘budlar ham.

Gerakl Tanatning qo‘lini qayirib, aylantirib yerga urdi. Tanat qabr toshlariga qattiq urildi va o‘rnidan turib «voy-voy»lay boshladi.

– Kimdan so‘rasang so‘rayver, Tanatdan qo‘rqinchlirog‘i yo‘q! Men eng qo‘rqinchli, eng shafqatsizman. Sen hech bo‘lmasa, shuni tushunarsan?

Gerakl unga quloq solib o‘tirmadi, oyoqlarini juft qilib ushlab, bor bo‘yicha tepaga ko‘tarib yerdagi toshlarga tashladi.

Tanat dodlab yubordi va shunday deb qichqirdi:

– Ey, odam, qo‘rqsang-chi! Axir sening oldingda o‘lim ma‘budi – eng kuchli, eng qo‘rqinchli, o‘lim chorlovchi turibdi-ya. U-u-u-u!

Gerakl esa:

– Nima bo‘pti? – deb uni yana kallasidan oshirib yelkasi bilan yerga tashladi. Tanat yerga qattiq tushdi, ikki qovurg‘asini sindirdi.

Olimp ma‘budlari bunga qarab ajablanishardi. Hatto ma‘budlar ham o‘lim ma‘budidan qo‘rqishadi, Gerakl nimagadir qo‘rqmasdan uni takror va takror ko‘tarib urayapti. Tanatning goh oyog‘i, goh qo‘li, goh bo‘ymi sinardi...

Nihoyat o‘lim ma‘budi yalinishga tushdi:

– Meni boshqa tashlama!

– Eh, afsus, sen o‘lim nimaligini bilmaysan-da, – Gerakl boshini chayqab qo‘ydi, – men seni o‘ldirib tashlagan bo‘lardim. Sen juda ko‘p g‘am-tashvisb keltirding. Mayli, men seni boshqa ko‘tarib tashlamayman, lekin buning evaziga Alkestidaning hayotini qaytarib berasan, tushundingmi?!

– T-t-tushundim! – boshimi qimirlatdi Tanat. – Bu yosh va go‘zal ayolni bajonidil hayotga qaytaraman. Faqat, o‘zingning ismingni ayt.

– Meni Gerakl deyishadi.





– Ha, Zevsning o‘g‘limisan! – dedi Tanat. – Albatta, sening qahramonliging haqida eshitganmiz. – U bazo‘r o‘rnidan turdi-da, belimi ushlab oqsaqlagancha, bir amallab qora qanotlarini yozib uchib ketdi. – Xayr! – deb tepadan qarab qo‘ydi. – Tanishganimdan xursandman!

– Alvido! – Gerakl unga qarab javobini berdi.

Shu payt Alkestida tobutdan tirik, mamnun holatda bosh ko‘tardi. Gerakl uni Admet yoniga boshlab bordi.

Baxtli er xotinini quchoqlab, quvonchidan yig‘lab yubordi. Bolalarining yuzlariga tabassum yugurdi. Mehmondorchilik, to‘y-tantana boshlanib ketdi. Gerakl esa uzoq qololmasdi, u Diomedning otlarini Evrisfeyga olib kelib berishi kerak. Gerakl do‘sti bilan xayrlashib, Frakiya qirg‘oqlari tomon suzib ketdi.

Frakiyaliklar mehmonni non-tuz yoki biron ichimlik bilan yaxshigina kutib olishmaydi, balki bolta bilan qarshi olishadi. Frakiyalik har bir jangchining o‘z qarddon boltasi bo‘ladi. U shu bilan tug‘ilgan, shu bilan o‘ladi. Frakiyalik o‘ng qo‘lida boltacha ushlab tug‘iladi. Bola o‘sgan sayin, boltasi ham kattalashib boradi. Yosh jangchi qo‘lidagi boltachani otishni, sermashni, ilib olishni mashq qilib boradi. Frakiyalik ulg‘ayganda uning qo‘lidagi boltacha kattakon vahimali qurolga aylanadi-da, chegarasidan kesib o‘tganni, tasodifan kelib qolganlarni, dushmani yer tishlatadi. Frakiyaliklar ana shunaqa. O‘z qirg‘oqlarini dadil qo‘riqlashadi. Geraklning kemasi esa qirg‘oqqa yaqinlashib kelardi.

– Kiprik qoqmay kuzatishsin-da! G‘aflatda qolishmasin-da! – Evrisfey o‘z Mikenidan tashvishga tushadi.

– Ilg‘ashdi! – xabarchi ma‘lum qildi. – Shoh Diomedga xabar qilishdi.

– Shoh nima deyapti? Chora ko‘ryaptimi?

– O‘nta harbiysini yuborib, tirik yoki o‘lik tutib kelishni buyurdi.

– O‘ligini olib kelishsa yaxshiydi! – hansiraydi Evrisfey. – O‘nta jangchi kamroqmasmikan? Jangchilari ancha mahoratli, yana qo‘llarida boltalari bor-ku! Gerakl hali bunaqalar bilan jang

qilmagan. Eng asosiysi – ular kutilmaganda jang qilishadi. Ular Geraklni qo‘lga olishadimi, yo‘qmi, muammo ana shunda.

Evrifey tashvishda. Zevs ham bezovta. U ham Mikenlik shoh o‘ylaganini o‘ylayapti: «Ular Geraklni qo‘lga olishni uddalarmikan? Agar to‘satdan o‘z boltalarini otishib, birdaniga hujum qilib qolishsa-ya? Geraklni taslim qilish...»

Geraklning butunlay parvoyi falak edi. U kemadan tushib, mehmonni kutib oluvchilarni izlardi.

Shoh Diomed ham o‘z otxonasida u yoqdan bu yoqqa yurar va Geraklning jasadini olib kelishlarini kutardi.

«Menimcha, jangchilar qirg‘oqda ushlanib qolishdi», – deb o‘ylagan shoh yana mingta jangchisidan jo‘natdi. O‘zi esa otida aylanishni davom ettirardi. Otlari odam go‘shini kutaverib och qolgan, tuyoqlarini yerga urib, zanjirlarini shiqirlatardi.

Shoh Diomed yana yarim soatcha aylanib, ajablana boshladi:

– Nimaga ular shu paytgacha bitta yunonni mening oldimga boshlab kelisholmayapti? – va qolgan jangchilarini ham jo‘natdi. Ularning hammasi o‘n mingta edi.

Shoh Diomed otxonasida u yoq-bu yoqqa yurishni davom ettirdi. Quturgan otlarning ko‘z oldidan o‘taverishning xavfli tomonlari ham bor. Ular odatlangan ovqatni talab qilardi. Ular temir zanjirlarni uzib, dubdan qilingan eshiklarni sindirib, tuyoqlarini har qayoqqa urardi. Mana, ular hozir otxonadan chiqib ketishadi-da, o‘zlari xohlayotgan yemishlarini izlashga tushishadi.

Shu yerga kelganda shoh Diomedning sabri tugadi. Uning o‘zi o‘sha baxtsiz qirg‘oqqa ketdi. Yo‘l-yo‘lakay ko‘rayaptiki, o‘nlab askari yer tishlab yotibdi. Hayron bo‘lgani shu ediki, barcha askarlari o‘zlarining boltalari bilan chopilgandi. Ana, qorinlariga urilgan boltalar ko‘zga tashlanyapti. U qadamlarini beshafqat bosib borayapti. Qarasaki, minglab askarlar o‘lib yotibdi. Har bittasining boshiga bolta sanchilgan. Yanayam yuraverdi: qarasa, bir yunon gulxan yoqib tuxum qovurayapti.

– Sen kimsan? – jiddiy ohangda so‘radi shoh.

– Geraklman! – xushmuomalalik bilan javob qildi Gerakl.
– Xo’sh, bu yerda nima qilyapsan?
– Shoh Diomedning qarshi oluvchi odamlarini kutypman.
– Seningcha bular kimlar? – qovoq soldi shoh va qirg‘oq bo‘ylab cho‘zilib yotgan jasadlarni ko‘rsatdi.

– Bular qanaqadir qaroqchilarga o‘xshaydi! Hech narsadan hech narsa yo‘q o‘z boltalari bilan menga tashlanishdi. Qo‘limdan kelgancha ularni tinchlantirib qo‘ydim. Bilmadim, shoh Diomed buni qanday baholaydi. Aytganday, siz uning qayerdaligini bilmaysizmi?

Shoh shundan keyin chidab turolmadi: ko‘zlarini chaqnatib, oyoqlari bilan yerni tepkilab, yo‘g‘on ovoz bilan baqirib berdi:

– Bilmasang, bilib qo‘y, men o‘sha buyuk shoh Diomed bo‘laman, bular mening eng yaxshi va botir askarlarim edi. Bularni o‘ldirganing uchun hayoting bilan javob berasan!

U brilliantlar bilan bezatilgan eng o‘tkir boltani oldi-da Geraklga qarab hayqirib uloqtirmoqchi bo‘ldi:

– Men senga ko‘rsatib qo‘yaman!!!

Gerakl yelkasini qisib qo‘ydi va:

– Menga Diomed xushmuomala, mehmondo‘st va bosiq deyishgan edi. Meni aldashgan ekan-da?!

Shunday deb Gerakl shohning qo‘lidan boltasini tortib oldi va kallasini tanasidan judo qildi. Bosh qirg‘oq bo‘ylab yumalarkan shunday deb baqirardi:

– Men senga ko‘rsatib qo‘yaman!.. Ko‘rasan hali!

Lekin bu ovozni Olimpda Zevs eshitmadi, chunki o‘g‘lining g‘alaba to‘yi davom etardi, xursandchilikdan quloqlari eshitmasdi.

Bu ovozni shoh Evrisfey ham eshitmaydi. Chunki, u alam bilan yig‘lardi. Bitta Geraklga teng kelolmagan minglab askarlarga ishonganidan yig‘lardi...

Kalla esa hamon yumalar va baqirardi:

– Ko‘rsatib qo‘yaman!!! Ko‘rasan!!!

Bu baqiriq ovoz tinishi bilan Geraklning qulog‘iga tuyoqlarning dahshatli ovozi va otlarning vahimali kishnashi eshitildi. Ular

ozodlikka chiqqan edi... Minglab otlar Geraklga tashlanishdi. Ana shu yerda ularning omadi kelmadi.

Bitta ot Geraklning oldiga xuddi sinamoqchi bo'lganday yo'rg'alab kelib tashlandi. Lekin qahramonning og'ir mushti otning miyasiga gursillab urildi. Ikkinchi ot yaqinlashdi – yana bir zarba bilan eshilib yerga quladi. Gerakl uncha qattiq urmagandi, faqat tinchlantirmoqchi edi, xolos. Barisini yer tishlatdi. So'ngra otlarni kema sahni ostidagi xonasiga olib borib joyladi. Kema Yunonistonga kelganda otlar o'zlariga kelishdi.

Gerakl odamxo'r otlarni Evrisfeyga keltirib berdi. Shoh otlarni ozodlikka qo'yib yuborishni buyurdi. Otlar toqqa qarab qochishdi va baland o'rmon orasiga yashirinib olishdi. U yerdagi yirtqich hayvonlar otlarning hammasini tilka-pora qilib tashlashdi.

Mana shunday qilib, Geraklning sakkizinchi qahramonligi ham nihoyalandi. Bu ko'rsatilgan qahramonlik butun Yunoniston pahlavonlarining shuhratiga shuhrat qo'shdi.



GERAKNING TO'QQIZINCHI QAHRAMONLIGI

Gerakl o'zining sakkizinchi qahramonligini amalga oshirgandan so'ng Evrisfey jiddiyroq o'ylab qoldi:

– Bu qanaqasi? Har bir qahramonlikdan so'ng Geraklning shuhrati tobora oshib boryapti. Bundan menga hech qanday foyda bo'lmayapti. Endi menga va mening oilamga foyda keladigan narsani Geraklga buyurishim kerak.

Shunday deb o'ylab turganda Evrisfeyning qizi kelib:

– Ota, men Ippolitaning kamarini taqishni xohlayman. Shu kamarni menga tezroq topib bering! – deb qoldi.

Evrisfey, albatta, birinchi navbatda Geraklni chaqirdi:

– Xo'sh, mening qizim malika Ippolitaning kamarini taqishni xohlarmish. Shuni olib kelasan.

Olib kel! – deyish oson. Ippolita shunchaki malika emas, balki suvoriy ayollarning sardori. Uning kamari ham oddiy emas. Bu kamarni unga urush ma'budi Ares sovg'a qllgan. Kim uni taqsa, suvoriy ayollar ustidan hukmronlik qiladi.

Lekin Gerakl bu haqda o'yayotgani yo'q. Vazifani oldi-yu, yo'lga chiqdi. Qahramon uzoq yo'l bosishi lozim. U Evksin Pontining qirg'oqlarigacha yetib borishi kerak. O'sha yerda suvoriy ayollarining poytaxti Femiskara joylashgan. O'ziga xos joylar... U yerda faqat ayollar yashaydi. Ular juda kuchli va urushqoq bo'lishadi. Suvoriy ayollar o'q-yoydan yaxshi foydalanadi, qilichni erkaklardan yaxshi o'ynatadi, nayzani ham uzoqqa otadi. Ular erkaklarni yomon ko'radi, ko'rsa bo'ldi, yurtidan haydab chiqaradi.

Gerakl uzoq suzib, har xil sarguzashtlarni boshidan kechirdi va nihoyat, mo'ljallangan joyga yetib keldi. Zevsning o'g'li Geraklning shuhrati allaqachon suvoriy ayollar yurtiga ham yetib kelgan edi. Ayollar o'z malikasi bilan Geraklni kutib olishga chiqishdi. Geraklni ko'rishdi-yu, haydab yuborish fikridan qaytishdi. U judayam kuchli, chiroyli va diqqatni jalb qiluvchi qobiliyatga ega edi. Ippolita qizarib ketdi, hatto shunday dedi:

– Bizning mehmondo'st yurtimizga xush kelibsan. Senga faqat nima kerakligini aytsang bo'ldi...

Gerakl har doimgiday gapga to'n kiygizib o'tirmadi, to'g'risini aytib qo'ya qoldi. U Evrisfey topshirig'iga binoan Ippolitaning kamarini olib ketishga kelganini aytdi. U bu ishni tez bajarishi lozimligini va iloji boricha kamarni o'z ixtiyorlari bilan berishlarini uqtirdi. Mabodo bermasalar, noxushlik va qurbonliklar bo'lishi mumkinligini ham qo'shib qo'ydi.

Ippolita bu dadil askar bilan bahslashib o'tirmadi.

– Bo'pti, – dedi. – Qanaqadir kamar uchun bahslashib o'tiramizmi, – u kamarini yecha boshladi.

Agar ma'buda Gera bo'lmaganida hammasi yaxshi ketayotgandi. U o'zini suvoriy ayol ko'rsatib, boshqalarning qulog'iga shivirlab qo'ydi:

– Bu qanaqasi, biz qandaydir Gerakl oldida past ketamizmi? U erkak-ku, biz suvoriy ayollar bo'lsak. Yaxshilab savalaymizda, orqasiga qaytarib yuboramiz. Unga malikaning kamari emas, o'zi kerak. Men bu erkaklarni yaxshi bilaman, oldiniga ular ayollarni o'g'irlashadi, keyin o'zlarining qullariga aylantirishadi.

Suvoriy ayollar xavotirga tushishdi.

– Judayam to'g'ri, – deyishdi, – Geraklni o'ldiramiz, hech bo'lmaganda uzoqroqqa haydab yuborish kerak.

Ayniqsa, ichlarida shamolday tez uchadigani Aella degani bor edi, qilichini chiqarib, Geraklga hamla qildi. Gerakl to'qmori bilan uning qilichini urib yuborgan edi, bir necha chaqirim nariga borib





tushdi. Yaxshiyamki, bu suvoriy ayol qilichini qo‘lidan chiqarib yubordi, bo‘lmasa qo‘lini ham yulib ketib, tanasidan bir necha chaqirim nariga borib tushardi. Qolgan ayollar ham norozilik bildirib, shovqin ko‘tara boshlashdi. Ular juda ham mag‘rur edilar, erkak kishining bunday munosabatini o‘zlariga haqorat deb bilishardi. Suvoriy ayollar Geraklni har tomondan o‘rab, qisib borib tanasini ilma-teshik qilishmoqchi bo‘lishdi, Gerakl to‘qmori bilan bir sermagan edi barisining qilichi qo‘llaridan uchib ketdi. Uchib ketayotgan qilichlar Egey dengiziga borib tushardi.

Shunda suvoriy ayollar orqaga chekinishib, qo‘llariga uzun nayzalarini olishdi va Geraklga qarab birvarakayiga uloqtirishdi. Gerakl nayzalarning yaqinroq kelishini kutib turdi va yana to‘q-mog‘i bilan urdi. Nayzalar sinib, vahshiylikdan alomat beruvchi ovozda baqirayotgan ayollarning oyog‘i ostiga borib tushdi.

Ular yana orqaroqqa chekinishib kamonlaridan o‘q uzishdi. Gerakl tomonga uch yuzdan ortiq kamon o‘qi uchib kelardi. Bu nayzalarning o‘tkir uchlari Geraklning tanasini teshib ketadigan shiddat bilan shuvillab uchardi.

Buni ko‘rib turgan Zevs Olimpda o‘tirib xavotirga tushdi.

«Qanday qilib, – o‘ylayapti u, – mening o‘g‘lim Gerakl bunday vaziyatdan qutulib chiqadi? Nahotki, yana to‘qmorini silkitadi?»

Evrisfey ham hayajonga tushdi. Har tomondan bir vaqtda uch yuzdan ortiq kamon o‘qi uchib kelayapti, deb xabarchilar unga bildiruvnoma berdilar.

– Bir vaqtdami, – bu yaxshi! – Evrisfey o‘ziga o‘zi gapirib qo‘ydi.

– Nihoyat Gerakl bilan biz manguga xayrlashamiz, menda shunday kichkinagina ishonch paydo bo‘ldi. Faqat siz, mag‘rur suvoriy ayollar, o‘qlaringizni aniqroq mo‘ljalga olingiz, aniqroq mo‘ljal oling, aniqroq...

Suvoriy ayollar bexato otishdi. Uch yuz o‘q Geraklning tanasini tilka-pora qilib yuborardi, faqat u kutilmaganda o‘zining hali

hech kim ko'rmagan sakrashini bajardi. O'lim xavf solgan paytda Geraklgacha ham undan keyin ham hech kim bunday sakramagan edi. U boshidan ham balandroqqa sakrab, oyog'i bilan osmonda bir aylanib, qaysidir muddatga havoda qotib turdi. Suvoriy ayollar kichikroq halqa yasab otishgani uchun o'qlar o'z-o'zlarini mag'lub qildi. Shamolday uchadigan suvoriy ayol Aellaning o'qi dugonasi Proteyani, Proteyani o'qi Aellani yiqitdi. Antiopa Melanippani, Melanippa Antiopani nobud qildi. Har bitta suvoriy ayol qattiq yaralandi. Faqat Ippolitaga o'q tegmadi. Osmondan yerga tushib, u yoq bu yoqqa alanglab turgan Geraklga qarab malika shunday dedi:

– Ma, kamarni ol-da, tezroq bu yerdan ket. Men boshqa qon to'kilishini xohlamayman.

Gerakl u bilan bahslashib o'tirmadi, kamarni olib qirg'oqdan uzoqlashib ketdi. Tez orada Ippolitaning kamarini Evrisfeyning qizi Admetaga topshirdi. Shoh qizi Geraklga minnatdorchilik bildirish u yoqda tursin, hatto, qarab ham qo'ymadi.

– Meni endi, butunlay boshqa narsalar qiziqtiradi, – dedi u. – Oldinlari Ippolitaning kamarini xohlagan bo'lsam, endi toza oltindan ishlangan, fil charmidan tayyorlangan yengil oyoq kiyimini olishni istayman.

Shunday qilib, Geraklning to'qqizinchi qahramonligi tugadi. Oldinda uni o'ninchisi kutardi.



GERAKNING O'NINCHI QAHRAMONLIGI

O radan bir qancha vaqt o'tib, Evrisfey Gerakl ni huzuriga chaqirdi. Lekin uni saroyga kiritishmadi. Qo'rqishdi-da. Shoh tepa ayvonda, Gerakl esa undan uzoqroq – hovlida turardi.

– Senga juda muhim bir vazifani topshiraman!

Gerakl esa uning sekin va kuchsiz ovozi ni eshitmasdi. Shunda Evrisfeyning yordamchilaridan biri Gerakl ga kelib aytib turdi:

– Shohimiz senga muhim bir topshiriqni buyuryaptilar, – deb, yana orqasiga chopib ketdi...

– Sen yerning eng so'nggi nuqtasiga borishing kerak... – davom etadi Evrisfey.

Xabarchi buni ham yugurib kelib bildirib ketdi.

– So'nggi nuqta bo'lsa, so'nggi nuqtaga-da! – Gerakl jimgina rozi bo'ldi. – Faqat menga qaysi tomonga yurishimni aytsin – shimolgami, janubgami?

– Janubga, – Evrisfey qaysi tomon xavfliroqligini aniqlab, javob qaytardi. – O'sha tomonga kunbotarda osmondan nurga to'lgan quyosh ma'budi Gelios boradi.

– Xo'sh, men u yoqlarda nima ish qilaman? – so'radi pahlavon. – Quyoshni yulib senga keltiraymi?

– Nima deyapsan, nimalar deyapsan! – Evrisfey qo'llarini silkidi. – Mutlaqo unday qilmagin. Quyosh juda issiq-ku, bu yerdagi bor narsani isitib, qovjiratib tashlaydi. Menga Quyosh kerakmas, menga sigirlar kerak. Yerning janubiy tugashida, ummonning bir orolida uch yuz-u o'ttiz uchta sigir boqiladi. Bu sigirlar devqomat odam Gerionniki. Sigirlarning suti ko'p va ular juda chiroyli. Eng muhimi

ular qimmatbaho. Lekin qaragin, birontasi yo'lda yo'qolib qolmasin. Agar bittasi yo'qolsa ham qahramonliging hisobga o'tmaydi.

Gerakl o'zining kuchga to'lib, bo'rtib ketgan ensasini qashlab:

– Agar orol ummonda bo'lsa, men qanday qilib u tomonlarga o'tib boraman?

– U yog'i sening ishing! – Evrisfey qisqa gapirdi va cho'milish uchun hammomga qarab ketdi.

Gerakl esa yerning adog'iga qarab yurdi. Piyoda. Uzoq yurdi. Afrikani kesib, Liviya sahrosi, qancha-qancha tog'-u daryolardan o'tdi. Gerakl ummon qirg'oqlariga kelib uzoq-uzoqlardan orolni izlay boshladi. Ummonning to'lqinli ufqlari orasidan o'sha orol ko'rinib-ko'rinmay turibdi.

– Men qanday qilib u tomonga o'tsam bo'ladi, – deb o'ylashga tushdi Gerakl.

Birdan ko'rsaki, Geliosning oltin aravasi osmondan tushib yerning adog'iga qarab g'ildirab ketyapti. Uning ustida Gelios o'tiribdi va ko'zni qamashtiryapti. Uning harorati tanani kuydiradigan darajada edi. Gerakl xafa bo'lib kamomidan unga qarab o'q uzdi, keyin yana... yana...

So'ng quyoshning qahqaha urganini eshitdi.

– Ha-ha-ha! Qani, qani, Gerakl, bu mima qilganing!! Meni, Geliosmi, qandaydir yog'ochdan qilingan o'q bilan urib tushirmoqchimisani?! Ha-ha-ha!! Kulgimni qistatmasang-chi. Ha-ha-ha!!!

Gerakl o'ylab-o'ylab u ham kulib yubordi:

– Ha-ha-ha! Ha-ha-ha?

Ular uzoq kulishdi, uch soatlar chamasi... So'ng do'stlashishdi. Axir ularning kelib chiqishi ulug'lardan, tag-taxtli edi-da. Gelios haqiqiy ma'bud bo'lsa ham Gerakl bandayi bechoralardan, lekin oqko'ngil, botir pahlavon edi. Quyosh xuddi shunday do'sti bo'lishini oldindan orzu qilardi.

– Gelios, quloq sol, – dedi Gerakl quyosh nuri ko'zini olmasligi uchun burilib gapirdi. – Men qanday qilib Erifey oroliga yetib olsam bo'ladi?





– O‘tir mening oltin qayiqchamga! – taklif qildi quyosh-Ge-
lios. – Har kun men ana shu orol yonidan suzib o‘taman, keyin
to‘g‘ri sharqqa – oltin saroyimga yo‘l olaman.

– Sening oldingda o‘tirib bo‘larmidi, judayam issiq-ku! – gap
tashladi Gerakl.

– Qo‘rqma, men birga suzmayman, men yerning shundoq
adog‘ida yotib turaman. Sen aytgan joyingga borgin-da, yana qaytib
kel. Men senga bu oltin qayiqchamni ishonaman.

– Katta rahmat! – Gerakl xursand bo‘lib qayiqchaga o‘tirdi-da,
orol tomonga suzib ketdi.

Bu yerda unga ikki boshli it Orfo tashlanib, kutib oldi. U kim
bilan muomala qilayotganini bilmasdi, bilganda sal ehtiyot bo‘lardi.
Gerakl cho‘qmorini ikki marta silkitgan edi, ikki boshli it boshsiz
qoldi. Uning yo‘lida Gerionning cho‘poni devqomat Evrition pay-
do bo‘ldi. U sigirlarni qo‘riqlardi. Agar bu yerlarda birov paydo
bo‘lsa: – Qo‘yib yubormayman! – deb baqirardi. Boshqa bironta
ham so‘z bilmasdi.

Hayot-mamot jangi boshlanib ketdi. Devqomat Evrition Gerakl-
dan ikki baravar balandroq edi. Bu esa jiddiy raqib degani. Chunki
barcha devodamlar kuchli va odamlardan hazar qilishmaydi. Gerakl
bor kuchini yig‘ib bir qulochkashlab devodamning tizzasiga urdi.
Devqomatning tizza kosasi yorilib, gursillab yiqildi va qo‘llarini
siltab baqirdi:

– Baribir qo‘yib yubormayman!

Gerakl yana bir qulochini yozib boshlagan ishini oxiriga yetkazib
qo‘ydi.

So‘ngra u sigirlarni ko‘rdi. Sigirlarni bir qarashda yoqtirib qoldi...
Ular juda ulug‘vor, chiroyli va kelishgan edi.

Gerakl sigirlarni dengiz tomon haydayotganda, orqadan gur-
sillagan ovoz eshitdi. Xuddi orqasidan uchta devodam quvib kela-
yotganday edi. Orqaga o‘girilib qarasa bitta ekan. Yana qanaqa
deng!!! Uch tana, olti qo‘l, olti oyoqlisi edi! Gerakl birdan o‘yladi: –
Ha, bu o‘sha mashhur Gerion bo‘lsa kerak, sigirlarning xo‘jayini.

Zevs ham Gerionning kelayotganini ko'rib, sal bo'lmasa Olimpdan qulab tushay dedi. U ham abadiy hayoti davomida qanchadan qancha maxluqlarni uchratgan, lekin bunaqasini ko'rmagan edi.

«U bilan qanday kurashadi? – aqliga sig'dirolmadi osmon hukmdori. – Axir u uchta qalqon bilan himoyalani, uch nayzani bir vaqtda irg'itishi mumkin. Lekin eng muhimi, bu – uning bo'yi. U Gerakldan yigirma marta baland, yelkalari ham kengroq».

Evrifey xabarchilari devodamning boshi, oyoqlari va qo'llarining ko'pligi haqida xabar berib turibdi. Evrifeyning ko'nglida yana yorug'lik paydo bo'ldi: «Gerion bilan hazillashib bo'ladimi? Balki bu ulkan maxluq haqiqatan ham Geraklni bir yoqli qilar? Qanday zo'r ish bo'lardi!»

Bahaybat Gerion Geraklga ko'p kuch sarflashni ep ko'rmadi, balki xuddi hasharotni ezganday oyog'i bilan bosib qo'ya qoladi. Mana, u o'zining vahimali oltinchi oyog'ini ko'tarib tashladi.

– Ha-ap!!

Bu nimasi? Bahaybat maxluqning oyog'i ostida qo'rqinchli og'riq paydo bo'ldi. Maxluq oyog'ini ko'targanda Gerakl oyog'i ostiga o'tkir qilichini xuddi igna sanchganday kirgizib qo'ygandi.

Bahaybat devodam og'riqdan bo'kirardi, uch og'izlab oyog'ining ostiga puflardi. U oyog'i ostidan po'lat qilichni xuddi zirapchani sug'urganday tortib oldi-da jahl bilan otib yubordi. Yana aytganidan qolmadi: To'p! – beshinchi oyog'i bilan to'pillatti, to'p! – to'rtinchi...

U oyoqlarini tinimsiz harakatlantirib Geraklni ezib tashlamoqchi bo'ldi. Mo'ljalga tegoldimi yo'qmi, bilolmadi.

Gerakl juda hushyor edi.

Gerion muvozanati buzilganini bildirmaslikka harakat qilar, lekin u yon-bu yonga egilib qo'yardi. U bu bahaybat maxluqning ko'zini mo'ljalga olib kamonidan o'q uzishga tayyor turardi. Xullas, ular xuddi musobaqada bellashayotganday xotirjam jang qilishardi. Jangda qanaqadir soniyalarda taqdiring hal bo'lishini kutib xavotirga tushasan, bu bellashish jangga ham o'xshamas edi.

Shunday qilib u Gerionning birinchi ko'zini mo'ljallab kamondan o'q uzdi, keyin ikkinchi... uchinchi... Shunday qilib maxluq ko'zlaridan ayrila boshladi... Yana uchta ko'zi qoldi – va tamom...

Lekin buni amalga oshirish oson emas! Bahaybat maxluq gursillatib yerni tepardi, Gerakl esa chap berib eshelayotgan dengiz qirg'og'iga chekinardi. Qirg'oq bo'ylab suv ostida o'tkir toshlar chiqib turardi. Agar shu toshli joyga qulab tushsa, o'lim ayab o'tirmaydi. Qirg'oq esa tobora yaqinlashyapti. Gerionning ko'zlari ham kamayib boryapti.

Mana, u uchinchi oyog'i bilan yerni to'pillatib bosdi... Gerakl qani? Ana, u yana chap berdi. Eh, uning ko'zlaridan bittagina qoldiku!

«Hechqisi yo'q – o'yladi Gerion. – Hozir men uni oyoqlarim ostida ezib tashlayman yoki qirg'oqning to'lqinlari charxlab o'tkir qilib qo'ygan toshlarga itarib yuboraman».

Qirg'oq esa yaqin, shundoq Geraklning orqasida. Bir qadam tashlasa – tamom! Boshi uzra juda ham kattakon nayzatosh osilib turardi...

– Hozir-hozir, bosib tinchitadi! – xabar berdi xizmatkorlar shoh Evrisfeyga. – Mana-mana!..

– Tezroq harakat qilmaydimi, – shivirlaydi Evrisfey. – Yana qancha kutish mumkin?

– Yana qanaqadir uch soniyalar, – javob qiladi xabarchi. – Balki to'rt soniyadir...

– Yana chap berib qolmaydimi? – hayajonlanadi Evrisfey.

– U endi hech qayoqqa qimiray olmaydi, orqa tomoni o'limga otib keladigan jarlik-ku! – xizmatkorlar mjiq shohni tinchlantirishdi.

Evrisfey Geraklning qahramonligini xuddi birinchi marta tomosha qilayotganday hayajonlanadi.

Zevs ham shunday hayajonga tushdi. U oroldan yuzini o'girib o'ziga o'zi gapirardi:

– O'g'lim, men senga ishonaman! Senga ishonaman!

Birdan to‘pillagan ovoz keldi. Devodam nihoyat oyog‘ini bosdi. Bahaybat Gerion bir amallab egildi-da, vahimali oyog‘i ostiga qarayapti: ezib tashladimmi? O‘xshamayapti-ku. Bu tutqich bermas yunon qayoqqa yo‘qoldi? Ana, u uzun bir kovakdan chiqib kelyapti, kamonidan o‘q uzmoqchi... Mana, o‘q ham uchib kelayapti... Birdan hammayoqni qorong‘ilik bosdi.

Hech narsa ko‘rinmay qoldi. Buning sababi Geraklning oxirgi o‘qi bahaybat maxluqning oltinchi ko‘zini ham ishdan chiqargandi. Gerion ko‘r bo‘lib qoldi, jahl ustida qirg‘oq bo‘ylab u yoqdan bu yoqqa gursillab qadam tashlar, qirg‘oq bo‘ylab... qirg‘oq bo‘ylab... tentirardi... U qirg‘oqning chuqur jarligiga dumbaloq oshib ketdi, pastda esa o‘tkir toshlar uni kutardi. Jimib qoldi, u qaytib chiqmadi.

Zevs xursand: – Men ishongandim!

Evrisfey xafa: – Umuman hech kimga ishonib bo‘lmaydi!

Gerakl esa barcha sigirlarni oltin qayiqqa haydab keldi. Qayiqni Geliosga topshirib, minnatdorchilik bildirdi. O‘zi esa sigirlarni uyga haydab ketdi.

Yo‘l azobi – go‘r azobi, deyishadi. Chunki yo‘l juda uzoq va mashaqqatli. Ispaniya, Fransiyani kesib o‘tish kerak. Italiyadan ham o‘tadi. Sigirlar yana yo‘l-yo‘lakay o‘tlashadi. Gerakl Mikenga yetguncha sigirlarni bir yil haydadi. Yirtqich hayvonlardan qo‘riqladi, kasal bo‘lishining oldini oldi, o‘g‘rilardan saqladi, xullas, Geraklga oson bo‘lmadi. Bu haqiqatan ham beqiyos qahramonlik edi. Ma‘buda Gera xuddi ataylab qilganday, barcha sigirlarga o‘zining har doimgi quturishini jo‘natdi. Itoatkor-yuvosh sigirlar tishlaydigan, tentakfe‘l bo‘lib qoldi. Xuddi bir narsa ularni quvlaganday, har tomonga yoyilib keta boshlashdi... Gerakl ular orqasidan tinmay chopardi.

Qanday balo kelsa ham Gerakl sigirlarni Mikenga haydab keldi. Roppa-rosa – uch yuz-u o‘ttiz uch sigir. Evrisfey bir boshdan sanab chiqdi: hammasi joyida. Gap bo‘lishi mumkin emas, qahramonlik hisobga o‘tdi... Bu o‘ninchisi – eng uzoq va sarguzashtlarga boy qahramonlik edi.

GERAKNING ON BIRINCHI QIYMATMONLIGI

Kunlarning birida Evrisfey xursand holda uyg'ondi.

– Ura! – hayqirib yubordi u. – Men endi Geraklga shunday vazifa berayki... Yer yuzida bironta odam buning uddasidan chiqolmaydi. Gerakl – bandayi bechora. Demak, u ham bu ishni eplolmaydi. Uxlab yotganimda Aidning yer osti saltanatini tush ko'ribman, u yer o'liklarning jirkanch qarorgohi. U yerda yer osti podshohligini qo'riqlovchi Kerber degan qo'rqinchli itni ham ko'rdim.

– Nima u haqiqatan ham qo'rqinchlimi? – xizmatkorlari qiziqib so'radi.

– Ishonmasangiz mening yotgan choyshabimni paypaslab ko'ringlar, ho'l bo'lib ketgan. Bu ter emas, tushimda Kerberni ko'rganimda qo'rqqanimdan... Bu shunaqa qo'rqinchli it. Uni tasavvur qilgandan ko'ra, ko'z bilan ko'rish yanada qo'rqinchliroq. Bir tasavvur qiling: u bronza peshona, uch boshli, bo'ynida zaharli ilonlar o'ralib yotibdi, eng xavfli joyi – uning dumi!!!

– Nimaga dumi? – ajablanishdi xizmatkorlar.

– Shuning uchunki... dumi nima bilandir tugaydi-da... – mug'ambirona ko'z qisdi shoh, so'ngra xizmatkorlariga qarab dedi: – Xo'sh, qani, nima bilan tugaydi?..

– Supurgi bilan? – kimdir topganday bo'ldi.

– Yo'q! – bosh chayqadi shoh. – Yana kim aytadi?

– Bolg'a bilan.. Uch ayri nayzami?.. Pichoqmi?.. Ilgakmi?.. Mash'aladir? – xizmatkorlar kim o'zarga baqirishardi.

– Eh, ahmoqlar! – Evrisfey xursand. – Hech kim topolmadi. Kerberning dumi ajdarning kallasi bilan tugaydi, yana uning vahimali og'zi ham bor!

Hamma «voh» deb yubordi. Baqrayishdi. Evrisfey esa kulib qo'ydi va saroyni aylanib chopti, qo'llarini ishqab:

– Tasavvur qiling-a, Gerakl pahlavonligiga borib odatdagiday itning bo'yniga yopishib, uni bo'g'a boshlaydi, bilmaydiki, Kerberning dumi xavfliroq. Ana shu paytda itning dumi qayrilib qahramonning bo'ynidan tishlaydi va zahrini o'tkazadi. Uning bo'yni qayrilib ketadi, favvora bo'lib qon oqadi. Gerakl dahshatga tushib: «A-a-a-a!!!» deb baqiradi va olamdan ko'z yumadi!

– Juda ajoyib, – shivirlaganday munosabat bildirishdi xizmatkorlar. – Nahotki, shunday bo'lsa?

– Bo'ladi-da! – Evrisfey mamnun edi. – Yana u Kerberning oldigacha yetib olishi ham kerak. Aidning chirkin saltanatida shunday tasodiflar borki, Geraklning yo'l-yo'lakay yuragi yorilib o'lishi ham mumkin. Masalan, men, oldinlari bu saltanatni tushimda ko'rganimda ham tagimni ho'llab qo'yganman. Ikkinchi marta shu chirkin saltanatda Kerberni ko'rdim-u, yana tagimni ho'lladim.

– Mana, shunaqa! – Evrisfey bosh chayqadi. – Siz bo'lsa ishonmadingiz. Hechqisi yo'q, mening oldindan bilishimcha: hali shunday kunlar keladiki, ming yillar o'tib – o'quvchilar Qadimgi Yunonistonning tarixini o'rgana boshlashadi va men dahshatli tush ko'rgan tunga alohida e'tibor berishadi. Choysab-poyshabni ho'llaganim haqida, albatta, unutib yuborishadi, lekin o'quvchilar eng muhimini bilib olishadi: shu tunda mening qalbimni yorituvchi bildirish bo'ldi. Men Geraklga qanaqa vazifani topshirishni tushunib yetdim. Geraklni bir bilib qo'yishsin, uning qanaqa ahmoq, mayda odam ekanligi haqida bir o'ylab qo'yishsin. Albatta, Qadimgi Yunoniston qahramoni bilan mening oramdagi farqlar ayon bo'ladi.

Mana, xabarchi shoh Evrisfeyning topshirig'ini Geraklga yetkazish uchun yugurgilab yetib keldi:

– Sen Aidning jirkanch saltanatiga tushishing va qo'rqinchli it Kerberni olib kelishing kerak!

Gerakl hech narsa demadi. Faqat to'qmog'ini qo'lga oldi va jo'nab ketdi.





Gerakl Lakoniyaga keldi va ko'rinmay ketish uchun Tenarga, jirkanch saltanatga tushib ketdi. Bu yarim kun davom etdi. Endi uni na Evrisfey, na otasi Zevs ko'ra olardi.

Evrisfey Geraklning shunday yo'qolib ketishini istab vaqt-vaqti bilan xursandchiligini bildirib qo'yardi.

Zevs juda ham hayajonda. O'g'lini intizorlik bilan kutayapti. Oddiy odam yer osti saltanatida uzoq turolmasligini u yaxshi tushunadi. U yerning ob-havosi zaharli va yana nafas olish uchun havoning o'zi yo'q. Shubhasiz bo'g'ila boshlaydi. Agar yana uch kundan keyin, kun yarmida u yer osti saltanatidan chiqmas ekan, demak, o'sha yerda manguga qoladi. Shoh Evrisfey buni yaxshi tushunadi. Shu sababdan quyoshga tez-tez qarab qo'yardi.

Gerakl esa umuman hech narsa haqida o'ylayotgani yo'q. U dadil zimiston va qayg'u podsholigidan ketayapti. Har tomondan o'lgan maxluq va o'lgan devodamlarning vahimali soyalari ko'zga tashlanadi. Meduza Gorgona soyasi ham ko'zga tashlanadi. Gerakl hech narsadan qo'rqmaydi, o'ligidan qo'rqib nima qildi, chunki bularni tiriklay mag'lubiyatga uchratgan. Ko'zga ko'ringan narsalar: o'tkir tirnoqlari bilan havoni timdalaydi, to'ymagan og'izlarini katta-katta ochib o'kirayapti. Qahramon hech narsaga parvo qilmaydi. Gerakl qorong'ilikda yo'q bo'lib ketdi.

Mana, u hukmdor Aid oldiga ham yetib keldi. Podsholik hukmdorining xotini, ajoyib Persefona shoh oldida o'tiribdi. Ular ikkalasi ham Geraklga katta qiziqish bilan qarayapti. U juda chiroyli va kuchli edi. Aid xushmuomalalik ila Zevs o'g'li bilan salomlashdi va:

– Yorug'lik olamini tark etib bu zimistonga tushishga seni nima majbur etdi? – dedi.

– Evrisfey sening podsholingingni qo'riqlovchi Kerber degan itni olib borishimni buyurdi. Men Olimp ma'budlarining ko'rsatmasiga binoan Evrisfey buyurgan barcha topshiriqlarni bajaraman. Shu itni olib ketishga ruxsat bersang.

– Bilolmay qoldim! – qovog‘ini soldi Aid. – Biz bu yerda unga o‘rganib qolganmiz. Kerber ham o‘z vazifasidagi ishini tashlashga rozilik bermasa kerak. U eng sodiq qo‘riqchimiz, biz unga ishonamiz va hurmat qilamiz. Men senga ruxsat beraman, faqat sen bo‘m-bo‘sh qo‘ling bilan hech qanday quolsiz Kerberni bo‘ysundirasan.

Gerakl cho‘qmorini shoh Aidning oldida qoldirib Kerberni izlashga ketdi. Gerakl yer osti podsholigida uzoq yurdi, o‘sha qo‘rqinchli itni qidirdi, oxiri Axeront qirg‘oqlaridan topdi. U itning bo‘ynidan tutib bo‘g‘ishga tushdi. Dumiga e‘tiborini qaratmadi ham. Itning dumida jag‘lari katta ochilgan ajdarning boshi paydo bo‘ldi va Geraklning bo‘yniga qarab egildi-da, mahkam tishlab, bo‘yin suyaklarini qisirlatib yubordi. Qon oqa boshladi. Gerakl «A-a-a!» deb baqirmadi ham, o‘lmadi ham. U hatto itni bo‘g‘ishdan to‘xtamadi, aksincha... tobora qattiqroq bo‘g‘a boshladi. Ajar ham Geraklning bo‘ynini chuqurroq tishlardi. Qani, kim-kimni?.. Vaqt o‘tayapti... Hech qaysisi taslim bo‘lmayapti. Kerber Geraklni, Gerakl Kerberni bo‘g‘ardi... Vaqt to‘xtovsiz o‘tib boryapti...

Mana, uchinchi kun boshlanib, quyosh chiqayapti. Evrisfey o‘zicha Gerakl ko‘rinmayapti, deb tantana qila boshladi.

– O‘g‘lim qani? – deb Zevs bezovta.

Quyosh tik ko‘tarildi, kun ham yarimlab qoldi. Gerakl hamon yo‘q. Evrisfeyning xabarchilari yer osti saltanatiga kiraverishda turib, oxirgi daqiqalarni sanayapti.

Uch daqiqa qoldi, ikki, bir... Mana quyosh tik kelib, kun yarimladi.

– To‘xta! – Zevs quyosh ma‘budi – Geliosga buyurdi. – Tik qoyalikda biroz to‘xtagin.

– Marhamat, sen hukmdorimizsan! – javob qildi Gelios va to‘xtadi. Xabarchilar yuragi qinidan chiqqudek bo‘lib tipirchilaydi! Qani, kim xushxabarni Evrisfeyga birinchi bo‘lib olib kelarkin? Vaqt to‘xtab qolganini xabarchilar payqashmayapti.

Quyosh ham qadimgi Yunoniston tarixida birinchi marta to'xtagan... Zevs vaqtini to'xtatish mumkin emasligini yaxshi tushunadi, lekin uning o'g'li xavf ostida. Quyosh-Gelios ham tarixda to'xtamagan va bu unga ham yoqmasdi. Lekin Gerakl – uning do'sti, do'st uchun nimalar qilmaysan!

Quyosh tik qiyalikda to'xtagan. Xabarchilar Evrifsheyga yaxshi xushxabarni yetkazishdi, suyunchi ham olishdi, bayram boshlab yuborishdi. Maishat qilishdi, ichimlik ichib, to'yib yeyishdi, yana ichishdi, yana yeyishdi, yana ichishdi, yana yeyishdi, uxlashdi, uyqudan turishdi... Qarashsaki, quyosh o'sha-o'sha turibdi, tun bo'lmayapti. Yunonlar hayron bo'lishdi va buni «BUYUK QUYOSH TURISHI» deb atashdi. Zevs va Gelios Geraklning yer ostidan chiqishini hamon kutardi. Gerakl ko'rinmayapti.

– Eh! – Zevs qattiq xafa bo'ldi. – Ko'nglim sezgandi-ya: u bu qaro yer ostiga kirmasligi kerak edi! Biz endi uni butunlay ko'rmaymiz!

– Men endi nima qilay? – so'radi Gelios.

– Qani, endi qimirlayver va tezroq, – javob qildi Zevs. – Qadim Yunonistonni vaqtsiz qoldirish yaramaydi, tabiat qonunlarini buzib bo'lmaydi: «Har bir narsa harakatda, har bir narsa o'zgarib turadi».

Gelios o'z g'ildiragiga o'tirib, Zevsning gaplarini ma'qulladi va qimirlashdan oldin oxirgi marta yerning o'sha qora teshigiga ko'z tashladi. Qarasaki, kimningdir kallasi ko'rinayapti. Geraklniki!!!

– Qadrdonim Zevs! – qichqirdi Gelios. – Bir qaragin-a, qara, kim kelayapti!

Zevs qarasa o'g'li, yana bir o'zi emas zanjirlangan Kerber bilan chiqib kelayapti. Geraklning biroz rangi siniqqan, umuman olganda esa ko'rinishi yomon emasdi. Zevs o'zida yo'q xursand bo'ldi, agar u oddiy odam bo'lganida yuragi yorilib o'lib qolardi.

Gelios butun el-u yurtga qarata baqirdi:

– Qo'zg'aldik!!! – Geraklga o'z taft qo'llari bilan silkidi-da, osmon bo'ylab tezlik bilan yurib ketdi.

Gerakl Kerbemi Evrisfey oldiga yetaklab kelganida shoh og'iz ocholmay qoldi. Ochsa ham gapirolmasdi. Keyin og'zini ochib-yopib turaverdi. Ko'zlari ham xuddi shunday harakat qilardi. U Geraklni bu yorug' dunyoda boshqa ko'raman, deb hech o'ylamagan edi. Geraklni ko'rib yana tagini ho'llab qo'ydi. Endi tushida emas, o'ngida, ikki marta emas, uch marta. Birinchi marta – Kerbemi ko'rganida, ikkinchi marta – u hurganida, uchinchi marta – dumini qimirlatganida. Evrisfey Geraklning oldiga tiz cho'kdi va Kerbemi qaytadan Aid saltanatiga qaytarib olib borishini iltimos qildi. Gerakl uning iltimosini bajo keltirdi va itni yer osti saltanatiga topshirdi.



GERAKNING ON IKKINCHI QAHRAMONI

Oradan bir qancha vaqt o'tib, Evrisfeyning xabarchilaridan biri Gerakning oldiga kelib shunday dedi:

– Shoh senga oxirgi, o'n ikkinchi topshiriqni buyuradi. Bunisi boshqalariga qaraganda ancha og'ir. Sen yelkasida butun osmonni tutib turgan buyuk pahlavon Atlas oldiga tezda jo'nashing kerak. Atlasning ajoyib bog'lari bor. U ajoyib bog'larga uning qizlari Gesperidalar qarashadi. Shuning uchun bu bog'larni «Gesperida bog'lari» deb atashadi. U yerda bir tup oltin olma daraxti o'sadi. Ana shu olma daraxtidan uch dona oltin olma uzasan-da, shohimiz Evrisfeyga keltirasan... Hammasini tushundingmi?

– Menimcha hammasi tushunarli, – yelka qisdi Gerakl. – O'sha sen aytgan Atlasni qayerdan izlashimni aytsang bo'ldi.

– O'-o'... yana nima istaysan! – kulib yubordi xabarchi. – Hamma gap shunda-da. Osmonni yelkasida ko'tarib turgan Atlas yerning qaysi adog'ida ekanligini hech kim bilmaydi.

– Bu qanaqasi bo'ldi, – qovoq soldi Gerakl, – «bor o'sha yoqqa, qayoqqaligini bilmayman» ekan-da?...

– Xuddi shunaqa! Bizning shohimiz Evrisfey Gesperida bog'larini butun umr izlashingga umid bildirayapti, balki o'sha yoqdan Mikenga boshqa hech qachon qaytib kelmassan. U senga «Oq yo'l» tiladi. Ha-ha-ha! – deb kuldi va vazifasini qoyillatib bajarganini Evrisfeyga bildirish uchun chopib ketdi.

Gerakl esa vaqt yo'qotmay bog'larni izlab yo'lga tushdi.

Pahlavonning otasi Zevs Olimpda o'tirib Evrisfeyni so'ka boshladi.

– O‘h, yaramas-ey! Pahlavon yerlik maxluqlar bilan kurashish uchun yetti yilcha vaqt qolganida Geraklga butun umri ketishi mumkin bo‘lgan ishni topshirasanmi?! Hatto, men bilmayman o‘sha bog‘lar qayerda joylashganini, ular sir tutiladi. Bir ojiz banda uni qanaqa qilib topadi?!

Aslida Geraklning ham ko‘p xislatlari borligini Zevs yaxshi biladi, shuning uchun ham unga ishonadi.

Gerakl Osiyo bo‘ylab, Ovrupo bo‘ylab ketayapti... Bir yildirki, uchragandan so‘raydi, lekin o‘sha bog‘lar qayerdaligini hech kim bilmaydi.

Mana, Gerakl eng uzoq shimolga, suvlari jo‘shib oqadigan Eridan daryosi yoniga keldi. Qarasa ayol farishtalar daryoda cho‘milayapti.

– Ey, ajoyib farishtalar! – baland ovoz bilan dedi Gerakl. – Mabodo Siz Gesperida bog‘lari qayerdaligini bilmaysizlarmi?

– Yengilmas Gerakl, iltimos, teskari qarab tursang, bo‘lmasa bizlar uyalamiz, – deyishdi ular.

Gerakl teskari o‘girildi, farishtalar suv ichida turib:

– Albatta, biz hech narsani bilmaymiz, lekin bir dengiz ma‘budi bor, u hammasini biladi. U barcha ma‘budlarning qarisi, uning oti Nerey. U dengizda yashaydi, ba‘zan qirg‘oqqa ham chiqib turadi, – deyishdi.

Gerakl ularga minnatdorchilik bildirdi va dengiz qirg‘og‘i tomon ketdi. Tosh ustiga o‘tirib kuta boshladi. Bir kun kutdi, ikki... uch... to‘rt... besh...

Bir oy o‘tdi... Nerey dengizdan suzib chiqmayapti. Faqat to‘l-qinlar biri orqasidan ikkinchisi kelib Geraklning oyog‘iga urilardi, ma‘bud esa hamon yo‘q. Ikkinchi oy ham o‘tdi. Endi Geraklning buyuk sabri ham tugayapti... Mana, uchinchi oy oxirlayapti. Gerakl o‘tirgan joyidan turdi va qari ma‘bud qanday qilib qirg‘oqqa kelayotganiga ko‘zi tushdi. Uning uzun soch-soqoli oqarib ketgan, juda ham qarigan. Ko‘p narsani bilishligi yuz-ko‘zidan ko‘rinib turardi.





«Bu o'sha Nerey bo'lsa kerak» – deb o'yladi Gerakl va shunday dedi:

– Bobojon, aytolmaysizmi, men Atlasni va uning bog'larini qanday topsam bo'ladi?

Nerey bobo javob o'rniga haybatli sakkizoyoqqa aylanib, paypaslagichlari bilan qahramonni o'rab oldi.

– Bu qanaqasi, tushunolmay qoldim! – Qahramon sakkizoyoqning so'rg'ichlarini bir tomonga, paypaslagichlarini bir yoqqa yig'ib, o'zini boshi uzra ko'tarib osmonga otib yubordi.

Bir soatlardan keyin Gerakl oyog'i ostiga shapillab tushgan sakkizoyoq, yana boboga aylanish o'rniga kattakon o'tkir tishli akulaga aylandi va Geraklning oyog'idan tishlamoqchi bo'ldi. Qahramon akulaning jag'ini ikki qo'li bilan ikki tomonga tortdi. Mana hozir odamxo'ring jag'i teng ikkiga bo'linib ketadi. Lekin birdan akula kitga aylanib qoldi. Kit Geraklning oyog'iga dumi bilan urib yiqitmoqchi bo'ldi. Gerakl uning bosh tomonidan ushlab harakat qildi. U kitning mo'ylovidan mahkam ushlab bor kuchi bilan siltagandi...

Hayriyat-ey, oxiri Nerey boboning o'z qiyofasi paydo bo'ldi. U o'z og'zini ushlab achchiq-achchiq yig'lay boshladi:

– Sen nega mening mo'ylovimni uzib olding? Men uni to'qqiz yuz yil parvarish qilgan edim. Mening boshqa qimmatliroq narsam yo'q edi. Faqat soqolim...

– Men sening soqolingni ham yulib olaman! – Gerakl qat'iy ogohlantirib qo'ydi. – Agarda Gesperida bog'lariga qanday borishni aytmasang.

– Men senga aytgan bo'lardim, lekin qo'rqaman! – tan oldi Nerey.

– Kimdan qo'rqasan? – Gerakl hayron bo'ldi.

– Ma'buda Geradan-da. Agar sirni ochsang, Olimpliklarning to'y-tomoshalariga qatnashmaysan, degan. Agar men u yerga borib ichimliklardan ichib turmasam bir kun ham yashay olmayman.

Olimpda Zevs buni diqqat bilan eshitib turgan edi va huzuriga darhol ma'buda Gerani chaqirtirdi.

– Sen butunlay aql-xushingdan ayrilganmisan?! – vajohat bilan baqirib Gerani koyidi. – Nima, boshqa qiladigan ishing yo'qmi? Sen har doim Geraklga zarar bo'ladigan ishlarni qilib, uning hayotini xavf ostida qoldirayapsan?! Javob ber, sen bilan Olimplarning eng kattasi gaplashyapti yoki bu yerda kim podshoh ekanligini unutib qo'ydingmi?

Gera esa faqat pishillab jim turardi.

– Endi sening o'g'lingni tinch qo'yaman, deb va'da ber! – Zevs talab qildi.

Gera baqirib yubordi:

– Qilaveraman! Qilaveraman!! Qilaveraman!!!

– O'h, hali shunaqami, endi o'zingdan ko'r, – dedi Zevs va Gerani oltin qoziqqa bog'ladi. So'ng yer bilan osmon o'rtasiga qo'yib oyog'iga ikkita temir bog'lab ham qo'ydi.

– Aqling kirguncha shunday osilib turasan! – dedi. Keyin Olimpdan turib qariya Nereyga qarata shunday dedi: – Azizim Nerey, qasam ichib aytamanki, sen har doim bizning bazmlarimizda eng hurmatli mehmon sifatida qatnashasan. Xohlaganingcha bol simir, bemalol!

– Bu butunlay boshqa gap bo'ldi! – xursand bo'ldi qariya. – Bu taklif menga yoqdi. Atlasga qanday borishni senga ayta qolay Gerakl. Oldiniga janubga yurasan. Uncha ko'p yurmaysan, qandaydir yarim yilcha... So'ng chapga burilib yana shuncha yurasan. So'ng dasht-u cho'llardan o'tasan va keyin yana bir yil yursang bo'ldi.

Gerakl qariyaga minnatdorchilik bildirib janubga yo'l oldi.

Liviyani kesib o'tdi. U yerda bahaybat Anteyni uchratdi. U barcha yo'lovchilarni o'zi bilan kurashga taklif qilardi. Agar kimni kurashda yutsa, o'shani o'ldirardi. Antey boshqadan mag'lub bo'lishdan qo'rqmasdi, chunki uning sirlarini hech kim bilmasdi.

Antey Geraklga ham tegajaklik qildi:





– Qani, kurashamiz! Kurashamiz!

– Bo‘pti, kel! – javob qildi qo‘rqmas Gerakl va kurash boshlandi.

Tez orada Gerakl raqibini ag‘anatib, ikkala kuragini ham yerga tekkizdi.

«E-ha, – o‘ylaydi Gerakl, – tamom g‘olib keldim».

Shunday deb turganida Antey Geraklning tagida yotib-yotib, buyuk qahramonni ko‘tarib tashladi va oyoqqa qalqidi. Gerakl qarasa raqibi o‘zidan ancha baland. Raqibning jahli qistab, mushaklarini yana shishirdi. Ular yana kurash tushishdi.

Geraklga biroz qiyin bo‘layapti. Anteyning tanasi po‘latday toblangan. Lekin Gerakl bir amallab Anteyni yana yerga bosib turdi. Antey o‘zini o‘nglab olib sakrab turdi va Geraklni ag‘darib tashladi. Gerakl qarasa raqibi olishuv boshlanishiga qaraganda ikki baravar balandladi, kuchi ham shuncha ko‘paydi. Bu uning sirlaridan biri edi. Bu kuch uning onasi – yer ma‘budasi Geyadan o‘tgan edi. Uni yerga qancha qattiq bossangiz, shuncha qattiqlashib borardi. Gerakl esa bundan bexabar edi, lekin nimadir shubhali tuyulardi: bu yerda nimadir... boshqacha edi.

Biroz vaqt o‘tib Geraklning ham mushaklari taranglashib, Anteyni boshi uzra rost ko‘tarib oldi va o‘ylay boshladi: «Agar hozir yerga ko‘tarib ursam, buning kuchi yanada ko‘payib ketadi. Nima qilish kerak?»

Raqibini ko‘targan holida o‘ylardi. Antey osmonda qo‘l-oyog‘ini silkitayapti, lekin tobora sekin... sekin... Gerakl o‘ylayapti... bir soat, ikki... Hech qanday chorasini o‘ylab topolmadi. Birdan boshi uzra turgan Antey yumshab qoldi. Gerakl boshini ko‘tarib qarasa, raqibi bujmayib, undan qum shuvillab to‘kildi. Uning osmono‘par bo‘y-basti qayoqqa yo‘qoldi? Uning po‘latday qattiq mushaklarichi?! Hech narsa qolmabdi. Negaki, Antey yerdan uzilib yashay olmasdi. Vaqt o‘tib u Geraklning kaftiga sig‘adigan darajaga keldi, yana bir oz vaqt o‘tib dengiz ko‘pigiga aylanib qoldi. Anteyning otasi Poseydon dengiz va ummonlar ma‘budi. Gerakl dengizga

borib ko'pikni suvga tashladi. Birdan to'lqinlar ko'tarilib, dengiz-ummon bo'ylab chopib ketdi. O'shanda juda ko'p kemalar halokatga uchradi. Antey kurashda yengilgani alamiga bu falokatlarni yuzaga keltirgandi.

Ana shundan beri yer ostida vulqonlar otilib, yer qimirlab turadi. Aslida Antey Gerakldan mag'lub bo'lgan kunni eslaydi. Poseydon esa o'g'lining bu ishlarini kechiradi, chunki o'z o'g'lida...

Gerakl yo'lida davom etib, Misrga kelib qoldi. U yer issiqmasmi, Nil qirg'og'ida o'sadigan kichikroq daraxt tagiga yotib uxlab qoldi.

Misr shohi Busiris tasodifan buni bilib qoldi va Geraklni bog'lashni buyurdi. Shoh pahlavonning otasi Zevs nomiga o'g'lini qurbonlik qilmoqchi edi. Misr shohi Zevs xursand boladi, deb o'yladi.

Zevs qovog'ini solib, boshini irg'ardi. Unga bunaqa qurbonlikning keragi yo'q edi. Busiris qahri qattiqligidan o'zini yo'qotib qo'ygandi. Bu juda ham oldin boshlangan. To'qqiz yildan beri Misrda hosilsizlik hukmron edi. Busiris Kiprdan Frakiy degan avliyoni taklif qildi. U yulduzlarga qarab:

– Sen Misrga qancha hukmronlik qilsang, hosilsizlik ham shuncha davom etadi, – dedi.

– Endi men shohlik ishimni to'xtatishim kerakmi? – ajablandi shoh.

– Ha, – Frakiy javob berdi, – to'xtatishga to'g'ri keladi.

– Boshqa chorasini topsa bo'lmaydimi?

– Bor, – javob qildi Frakiy, – ammo bu biroz og'irroq: sen har yili Zevs sharafiga bir begona yerlikni qurbonlik qilishing kerak.

– Bu usuling menga ko'proq yoqdi! – dedi Busiris va kelgan barcha begonani oldiga tutib kelishni buyurdi. U va'da qilgan gapida turardi.

Shundan beri Misrga kelgan barcha begona yerliklar momoqal-diroq sochuvchi sha'niga qurbonlik qilinadigan bo'ldi. Aslida Frakiy bashorat qilishda xatolikka yo'l qo'ygani edi. Qurbonliklar qur-

g'ochilikni tugatmadi. Busiris esa bu mashg'ulot bilan juda ham qiziqib shug'ullanadigan bo'ldi. Bir yilda bir kishini emas, minglarni o'ldirardi. Bu uning uchun juda oz ko'rinardi. Qurg'ochilik esa hamon davom etardi.

«Mana ko'rasizlar, Geraklni qurbonlik qilsam, qurg'ochilik, albatta, to'xtaydi!» – deb o'yladi u va bog'lab tashlangan Geraklni olib kelishni buyurdi.

Olib kelishdi. Gerakl olov oldida xotirjam turibdi, qo'rqmayapti.

– Aqlingni yig'ib ol! – dedi u Busirisga. – Hali kech bo'lmasidan bu ahmoqona fikringdan qayt!

– Mana bunga bir qarang'lar! – Busiris chiyilladi. – Uning qo'llari bog'langan, umridan-ku, qanaqadir soniyalar qolganiga qaramasdan, meni qo'rqityaptimi?! Qani, tezroq uni qurbonlik qilinglar, imillamasdan tezlatinglar, men tezroq yomg'ir quyishini xohlayman.

Shoh shunday deyishi bilan Gerakl arqonlarni uzib yubordi va qurbonlik qilayotganning shundoq oldida Busirisni o'ldirib qo'ydi, uning o'g'li Amfidamant ham omon qolmadi.

Shundan keyin qurg'ochilik tugab, yomg'ir yog'a boshladi.

Gerakl yo'l-yo'lakay yana ko'plab xavf-tasodiflarga duch keldi. Mana, oxiri u yerning adog'iga yetdi va u yerda bahaybat Atlasni uchratdi. U mustahkam osmon-falakni o'z keng yelkasida ko'tarib turardi.

– Sen osmonni qanday ko'tarib turasan? – Gerakl qiziqib so'radi. – Bu juda og'ir-ku!!!

– Nimayam qilardim? – xo'rsindi Atlas. – Mening ishim shunaqa, taqdirim shu.

– Menga quloq sol Atlas, mening xo'jayinim Evrisfey Gesperidalar bog'ida o'sadigan oltin daraxtdan uch dona oltin olma olib kelgin, deb jo'natgan. Shuni menga bersang, iltimos!

Atlas chuqur nafas olib, shunday dedi:

– Mening o'zim olmaga borib kelaman, sen faqat meming o'rnimga yelkangda osmonni ko'tarib tursang.

Gerakl Atlasning o'rniga og'ir osmonni ko'tarib turishga rozi bo'ldi. Lekin juda ham og'ir edi. Chunki bu og'irlik har qanday pahlavonni bosib, ezib qo'yardi. Gerakl osmonni ko'tarib turibdi. Atlas qachon qaytar ekan, deb soniyalarni sanayapti...

Va nihoyat Atlas ortiga qaytib:

– Yaxshilab ushlab turibsanmi!! – dedi. – Bu og'irlikni ko'tarib turish ko'proq sening taqdiringga o'xshaydi. Bu uchta olmani Mikenga men o'zim olib boraman shekilli. Sen falakni yaxshilab ushlab tur, bo'lmasa osmon tushib yerni ezib qo'yadi. Bo'пти, Gerakl ko'rishguncha!..

Olimpda ma'budlar hukmdori dahshatga tushdi. «Bu qanaqasi?! Nahotki uning o'g'li Gerakl yerning adog'ida qolib, yelkasida shunday og'irlikni ko'tarib turaversa?! Bunaqada ma'budlarga kim yordam beradi, axir, ulkan maxluqlar bilan jang qilishga qisqa muddat qoldi. Eh, bu pahlavonlar, doimo birovlarga ayyorlik qilib, ulardan foydalanishga harakat qiladi!»

Olmani olib ketayotgan Atlas Geraklning bo'g'iq ovozda nimadir deyayotganini eshitib qoldi.

– To'xta, ey jasorat sohibi, Atlas!

Pahlavon to'xtadi.

– Senga nima kerak, Gerakl?

– Menga bu ish, taqdirim juda-juda yoqadi, lekin bir noqulaylik bor ekan – men o'zimni erkinroq tutib, baxtliroq odam bo'lishni istardim.

– Balki men senga yordam qilarman? – so'radi Atlas.

– Bo'lmasam-chi, – Gerakl boshini qimirlatdi. – Bilasanmi, bu osmon-falak juda ham qattiq ekan, o'zing yaxshi bilasan-ku! Shuning uchun men o'zimga yostiqlar tayyorlab olmoqchiman. Bu yostiqlarni yelkamga qo'ysam unchalik og'ir bo'lmaydi.

– Bo'пти, – rozi bo'ldi Atlas. – Men falakni biroz ushlab turaman, sen esa, maysalardan o'zingga yostiqlar tayyorlab olaqol!





Atlas o'zining eski joyiga keldi, falakni ko'tarish uchun yelkasini tutib berdi, Gerakl esa yostiqla yasash o'rniga yerdan kamonini, to'qmorini ko'tardi va Atlasga qarab:

– Yo'q, azizim Atlas, bu mening taqdirim emas – falakni ushlab turish... Senga to'g'risini aytadigan bo'lsam, yana ikki daqiqa o'tganida – belim ikki bo'lakka ajralib ketardi. Menga o'z ishim, senga o'z ishing. Alvido, falak pahlavoni!

– Alvido, jasoratli Gerakl! – javob qaytardi Atlas. – Sen to'g'ri aytasan, har kim o'z ishini bajarishi kerak.

Olimpda Zevs xursandchilikdan charaqlardi.

– Mana shunaqa mening o'g'lim, – shivirlaydi u, – faqat kuchli emas, aqlli ham!

Gerakl ortiga qaytib ketdi. Ketdi emas, chopdi. Shunday qilishni Zevs iltimos qilgandi. Chunki asosiy jangga bor-yo'g'i yarim yil vaqt qolgandi. Gerakl o'z vaqtida manzilga yetib keldi va olmalarni endi qahramondan ajablanmay qo'ygan shoh Evrisfeyga topshirdida, qullikdan qutuldi. Axir u ozodlik uchun muhim bo'lgan o'n ikki qahramonlikni muvaffaqiyat bilan bajargan edi-da.

Keyingi kun urush boshlandi. Olimplar bilan hokimiyatni o'z qo'llariga olmoqchi bo'lgan yerdan chiqqan pahlavonlar o'rtasida jang boshlandi. Bu yer tarixida eng katta olishuv bo'lgandi. Insoniyatning taqdiri hal bo'lardi. Pahlavonlar rostmana pahlavon edi. Ularning boshlari bulutlarga tegar, ba'zilariniki osmonga yetgandi. Ularning tanasi qattiq tog' jinsidan. Na Zevsning chaqmog'i, na Eolning shamoli, na Poseydonning kuchli to'lqimlari ularni yengolmasdi. Ular bostirib kelishdi. Ularni faqat Gerakl to'xtatishi mumkin. U to'xtatdi ham. Hatto ularni tum-taraqay qilib tarqatib yubordi. Bu ishni u qanday uddaladi, deysizmi?

Mana, uning ustiga Uralon degan pahlavon bostirib kelayapti. Atrof g'alvirdan o'tkazilyapti, yorilishlar, qimirlashlar, chang-to'zon, xullas...

Xarsang toshlar uchib yuribdi. Ana shularning ichida o'n ikki qahramonlik g'olibi, barcha gunohlardan tozalangan, o'zini tutib

olgan Gerakl turibdi. U kelayotgan pahlavonning bir qarashda yengib bo'lmas, tosh tanasini ko'rayapti. Gerakl qanaqadir tushunib bo'lmas sezgilar orqali nimalarnidir anglay boshladi: mana, bu joyi bahaybat yer pahlavonining nozik nuqtasi, o'sha Geya o'z qorniga to'plagan toshchalar.

Qadim Yunonistonning qahramoni kamonidan aynan o'sha nozik joyiga o'q uzdi... Lahzalar ichida yerning bahaybat pahlavoni bo'laklarga bo'lina boshladi. U yerga qulab tushdi. Mana, u parchalanib yotibdi. Bu endi Uralon degan pahlavon emas, oddiy Ural tog'lariga aylangan toshlardir.

Gerakl Himalaon pahlavonini ham yengdi. Endi u Himolay tog'lariga aylandi. Alpion esa Alpga aylandi. Kordilion – Kordileraga aylandi. Yer yuzidagi barcha tog'lar – o'tgan pahlavonlardir.

Elladaning buyuk qahramoni ana shunaqa qahramonliklar qilgan.

Olimplik ma'budlar yer pahlavonlari ustidan g'alaba qozongan Gerakldan behad minnatdor. Shunday minnatdorki, hatto, qahramonni olamdan o'tgandan keyin ham uni Aidning yer osti saltanatiga jo'natmadi. Hali ham Olimpga chorlayaptilar. Xullas, Gerakl ham o'lmaslarning o'lmasi, yaxshilarning yaxshisi bo'lib, o'lmas ma'budga aylanib, barcha qudratli ma'budlar orasidan joy oldi. Insoniyat baxt-saodati uchun olib borilgan kurashlar va qahramonliklar hech qachon unutilmaydi!

ANA SHUNAQA...
TAMOM.



MUNDARIJA

Gerakl nima uchun va qanday dunyoga keldi.....	3
Gerakl va ikki ulkan bo'g'ma ilon	9
Geraklning ulg'ayib qul bo'lgani	14
Geraklning birinchi qahramonligi.....	20
Geraklning ikkinchi qahramonligi	25
Geraklning uchinchi qahramonligi	32
Geraklning to'rtinchi qahramonligi	37
Geraklning beshinchi qahramonligi.....	42
Geraklning oltinchi qahramonligi.....	48
Geraklning yettinchi qahramonligi	54
Geraklning sakkizinchi qahramonligi	60
Geraklning to'qqizinchi qahramonligi.....	72
Geraklning o'ninchi qahramonligi.....	78
Geraklning o'n birinchi qahramonligi.....	86
Geraklning o'n ikkinchi qahramonligi	94

Adabiy-badiiy nashr

SERGEY SEDOV

GERAKLNING

o'n ikki afsonaviy qahramonligi

Tarjimon: *Rauf Subhon*

Muharrir *B. Akbarov*
Badiiy muharrir *I. Yo'ldoshev*
Tehnik muharrir *T. Xaritonova*
Kichik muharrir *D. Xolmatova*
Musahhah *M. Ishonxonova*
Kompyuterda tayyorlovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi A1 № 158. 14.08.2009
Bosishga 2015-yil 24-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 60x90¹/₈.
Ofset qog'ozi. «Tayms» garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 14,0. Nashr tabog'i 10,86.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 15-378.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Sedov S.
S40 Gerakning o'n ikki afsonaviy qahramonligi: badiiy asar / S.Sedov. –
Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015. – 112 b.

ISBN 978-9943-28-231-5

UO'K: 821.512.133
KBK 84(2Ros-Rus)



«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-28-231-5



9 789943 282315